

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrası

Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish ta`lim yo`nalishi

Bitiruvchi kurs talabasi Fayziyeva Ra`noning

Ona tili va uni o`qitish metodikasi fanidan

*“2-sinf o`qish darslarida o`quvchilar nutqini o`stirishda
innovatsion texnologiyadan foydalanish” mavzusidagi*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o`qit. G.Tilavova

Navoiy – 2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

I BOB. 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari

1.1 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanishda dars samaradorligini oshirish.....

1.2 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanishda o'quvchilar bilimini baxolash yo'llari.....

1.3. 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish.....

II BOB. 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar bilimini nazorat qilish metodikasining amaliy asoslari.....

2.1. 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanish

2.2. 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanishda amaliy ishlar.....

2.3 Tajriba – sinov ihlari va natijalari.....

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi -mustaqillikning birinchi kunlaridanoq prezidentimiz I.A Karimov yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor bera boshladi. O'zbek tilining «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Davlat ta'lim standartlari» ning chop etilishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.¹

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.²

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyni so'zlari bilan aytganda, «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur»³

Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, O'zgalar nutqini tinglay va ang'lay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, o'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish, o'quvchi- ta'lim- o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

¹ 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.,«Ma'naviyat»,2008 28- b

² 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.,«Ma'naviyat»,2008 26- b

³ 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.,«Ma'naviyat»,2008 55- b

Ona tili metodikasi fani egallangan bilimlarni pedagogik amaliyotga joriy qilish, ilg'or texnologiyadan foydalanish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga yunaltirgan.

Til metodikasini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan bir ma'noni turli shakllarda bera bilish ko'nikmasi shakllangan adabiy nutq me'yorlarini egallagan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

Ona tili o'qitish metodikasini o'rganish jarayonida qo'yidagi vazifalar bajariladi:

- o'quv mashg'ulotlarida til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash , qiyoslash , umumlashtirish asosida olib borib , o'quvchining mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

- o'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish , so'z boyligini oshirishni , tafakko'r doirasini kengaytirish , nutqiy salohiyatni shakllantirish;

- o'quvchilarni kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yul va usullarini o'rganish.

o'qish darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi.

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda o'qish darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'qish darslarini tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib bordik.

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqdik. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qildik. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzak», «Interfaol», «Uyin dars», «Munozarali-bahsli dars»,

«Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalansa maqsadga muvofiqdir.

Darslarda har xil manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi.

Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi.

Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi.

Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

O'qish darslarida badiiy adabiyot o'quvchilarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning kudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u O'quvchilar nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi: 2- sinf o'qish darslari jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashni shakllantirishda, o'quvchilarning nutqini oshirish maqsadga muvofiqdir. Oqish fanidan qiziqarli savol, topshiriqlar tuzish va o'tiladigan mavzular bo'yicha mustahkamlashdan iborat. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishgan iborat

2- sinf o'qish darslarida o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning har xil usullari va shakllarini topish va uni tadbiq etish ilmiy tadqiqotning ko'zlangan asosiy maqsadidir.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: Boshlang'ich ta'limning 2-sinf o'qish darslarida o'tkaziladigan ta'lim- tarbiya jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Boshlang'ich ta'limning 2-sinflarida o'qish darslarida jarayonida o'quvchilar savodxonligini oshirish.

Ilmiy tadqiqot ishidan kutiladigan farazlar:

- Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish darslarida 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanish bo'yicha olgan bilimlarini nazariy ma'lumotlar hamda metodik tavsiyalar asosida o'rganib chiqilsa;
- O'quvchilarning o'qish darslarida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini, mantiqiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladigan usullardan foydalanib faoliyatga to'g'ri tadbqiq etilsa;
- O'quvchilarning o'qish fanidan olgan bilimlarini o'stirish jarayoni tizimli ravishda amalga oshirilsa;
- O'quvchilarning 2-sinf o'qish darslarida o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilishda, tahlil qilishda, ularning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda zamonaviy innovatsion usullardan foydalanilsa;

Ushbu farazimizdan kelib chiqqan holda tadqiqotimizning asosiy omilini ta'minlovchi vazifalarni quyidagi ravishda belgilashni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. O'quvchilarga 2-sinf o'qish darslarida berilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonining o'quvchi faoliyatidagi ahamiyatini chuqur o'rganib chiqi'ish;
2. Savol, topshiriqlar hamda suhbat orqali o'quvchilarning tafakkurini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish;
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga beriladigan mustaqil topshiriqlar orqali ularning dunyoqarashini shakllantirish;
5. Ta'lim jarayoniga innovatsion usullarni qo'llash orqali o'quvchilar nutqini o'stirish;

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Boshlang'ich ta'lim mazmunini o'zida aks ettiruvchi asosiy hujjatlar, boshlang'ich sinflar uchun ona tili darsliklari va metodik tavsiyanomalar, DTSlar hamda fan dasturlari, ilmiy-uslubiy seminar materiallari va

ilmiy jurnallardagi ilg`or tajriablarni o`zida aks ettiruvchi maqola va tezis materiallari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida ko`plab tajribali o`qituvchilarning ish faoliyatini kuzatish, ularning metodik ko`rsatmalarini o`rganish, boshqa axborot olish imkoniyatlaridan, shuningdek matbuot materiallaridan foydalangan holda o`quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o`stirish, o`qish fanidan egallagan bilimlarini oshirish to`g`risida ma`lumotlar to`pladim. Shuningdek, 2-sinf o`quvchilarining o`qish darslarida olayotgan bilimlarini nazorat qilishga doir bir qancha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqdim. Ushbu kichik ilmiy tadqiqot ishida tavsiya etilgan ko`rsatmalardan ta`lim tarbiya jarayonida o`qituvchilarning foydalanishlari ijobiy natijalarga erishish uchun muhim omil bo`lib xizmat qiladi deb o`ylayman.

Bitiruv ishining yangiligi

-Boshlang`ich sinf o`qish darslarida innovatsion texnologiyaning usullaridan foydalangan holda o`quvchilar bilimini nazorat qilish metodikasini yaratish;

-2-sinf o`qish darslarida o`quvchilar bilimini nazorat qilishda o`qish darslari ning ahamiyati;

-boshlang`ich sinf o`qish darslarida topshiriqlar, matn yaratish.rangli rasmlardan foydalanish muammolarini hal qilish yo`llarini ishlab chiqish;

-mavzu mazmunini tushuntirish va nazorat qilish yo`llarini ko`rsatish.

**Bitiruv malakaviy ishining tajriba olib boorish ob`ekti:** Navoiy shahar 8-umumiy o`rta ta`lim maktabi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Kirish, ikkita bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari

I.I. Metodikaning amaliy ahamiyati o'quvchilarning til boyligini har tomonlama to'liq bilib olishlarini ta'minlashdir. Buning uchun biz quyidagilarni yodda tutushimiz lozim:

- til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir;
- tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas;
- tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi;
- maktabning vazifasi tilni aloqa- kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Til oqilona , mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va formalari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish .tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi; biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham usadi.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi maktabda o'qitishning o'quvchilar nutqining yaxshi rivojlanishiga kafolat beradigan tilni har tomonlama bilishning ijtimoiy rolini tushuntiradigan yullari bilan ta'minlashi kerak. Demak, nutq o'stirish maktabning muhim vazifasidir.

Amaliyot kishi bilimining manbai va harakatlantiruvchi kuchi, haqiqat mezoni va bilim tojidir.

Analitek-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chikarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida og'zaki va yozma tarzda jonli nutqiy aloqaga, to'g'ri talaffuzga o'tadilar. Ular kuzatish jarayonida bilib olgan, uzlashtirgan koidalarini amaliyotga tatbiq etadilar.

Metodika bilish nazariyasidan tashqari, yangi fanlar, xususan, psixologiya.pedagogika ma'lumotlarga • tayanadi.

Pedagogik psixologiya bilimlarning o'quvchilar tomonidan uzlashtirilishini, ko'nikma va malakalarning shakllanish jarayonini tekshiradi. Metodika psixolingvistika bilan ham, bog'lik.

She'riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy xis-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o'z tas'ir kuchiga ko'ra turlicha bo'ladi: hikoyalarda o'quvchilar so'zlarning lundaligi va aniqligini bilib oladilar; she'rlarda o'zbekcha nutqning musikiyligini, oxangdorligiyi ilgaydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko'rsatadi.

O'quvchilar badiiy asarlar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini paykay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik xis-tuyg'ulari - birovning dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uygona boshlaydi. Bu printsiipiallik, xalollik, haqiqiy fukdrolik xislari tarbiyalanadigan poydevordir. «Xis-tuyg'ular bilimdan oldin keladi; kimki xakikatni xis qilmagan bulsa, u uni tushunmagan va tanimagandir» .

Xalq - o'quvchilarning betakror o'qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hech qaysi asarlarda qiyin talaffuzqilinadigan tovushlarning bunday qoyilmakom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko'ra bir-biridan zurga farq qiladigan so'zlarni xayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor xazillar, nozik yumor, sanoq she'rlar - pedagogik ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo'rqqoqlik, ujarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash (egoizm)kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malhamdir».

Ertaklar olamiga sayoxat o'quvchilar tasavvo'rini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruxida tarbiyalangan o'quvchilar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni ximoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar.

O'quvchilar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarning (ota-onalar, pedagoglar) o'qib chiqilgan asarlar bo'yicha nasixatnamo muloxazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan asar bo'yicha haddan tashqari ko'p nasixat qilysh katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmaz ziyon yetkazadi: mayla-chuyda savollar bilan «sochib tashlangan» asar o'quvchilar ko'z ungida o'zining barcha jozibadorligini yuqotadi, oqibatda unga nisbatan o'quvchilarning ham qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur.

Metodikaga psixolingvistika nutq haqida, uni talab qiluvchi sabablar, nutq turlari, nutqni qabul qiluvchi signallar va boshqalar haqida ma'lumot beradi.

Shuningdek, metodika, didaktika, umumiy pedagogika bilan o'zaro bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasi o'qish darslarining ma'lum qismini amaliy, ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi

Savod o'rgatish metodikasini ishlashda fonetika, fonologiya, grafika asos bo'ladi. Lug'at ishini tashkil etishda leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasallishini o'rganishda so'z yasallishi, etimologiya, grammatika asos bo'lsa, morfologiya va sintaksis til qurilishi haqida tushuncha xosil qilishda, tugm yozuvga o'rgatishga orfografiya nazariyasiga asoslanadi.

O'qish metodikasi adabiet nazariyasiga asoslanadi. Chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda taxdil qiladilar.

Boshlang'ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning o'quvchilarga ta'sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va mazmunini, qurilishi, janri, tasvirik vositalarini hisobga olish zarur.

O'quvchilarga ona tilni o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan tashqari tamoyillar bo'lib,

o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madannyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni kuzda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchn navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning funksional-stilistik xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi.

Og'zaki nutqni yo'qma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofik; faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq Ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlanishga xarakat qilgan.

Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar ilm—fanni dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos xurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bulmasin uz farzanddarini savodli bo'lnshini orzu qilganlar.

Farzandlarini yoshligidanoq maktabga o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga saboq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan.

Bu jarayon silliq kechgani yo'q. Ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, 20-yillarda maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga

mos kelmadi, analitik-sintetik ishlarni ta'minlamadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi. Keyinchalik 1931 yil 5 sentyabr «Boshlang'ich va o'rta maktab xaqidagi, 25 avgust 1932 yil «Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqida»gi qarorlar yuqoridagi kabi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o'qituvchilarga yordam berdi.

Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik—sintetik tovush metodi qayta tiklandi.

Grammatik, orfografik materiallarni izchil o'rgatishga, o'quvchilarning har tomonlama savodli bo'lib, madaniy nutqni egallashlariga katta ahamiyat berila boshlandi. O'quvchilar va o'qituvchining o'quv mehnatni tashkil etishning asosiy shakli bo'lgan dars metodikasi muvaffaqiyatli ishlana boshlandi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasida anchagina qo'llanmalar yaratildi. Bu yillar mobaynida ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlaia boshladi, umumiy pedagogik, didaktik va psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish va yangi metodika yaratishga imkon berdi.

O'zbek tilshunosligi sohasidagi muvaffaqiyatlar ham tilni o'zlashtirish jarayoniga va metodikaning rivojlanishiga jiddiy yordam berdi. Xuddi shuningdek, bu fanning rivojlanishiga uni o'quvchilarning ommaviy ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrdagi jurnallarda o'nlab metodik maqolalar bosilib chiqdi.

K.D-Ushinskiy boshlanig'ich maktab o'quv predmetlari tizimida tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblaydi. «Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi,.. Bola ikki - uch yil ichida shuncha ko'p narsani o'rgatadiBola ikki – uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil kun bilan metodik jixatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi, ona tilini ulug' pedagogligi ham ana shundadir», deydi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy fasliyatlar bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.
3. Adabiy til normalarini, ya'ni imloviy va punktuatsion savodli yozuvni, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.
4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish.
5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va boshlang'ich sinflar ona tili dasturida aks etadi.

Dastur davlat xujjati bo'lib, unda o'quv predmetining mazmuni va hajmini, shuningdek, shu predmetdan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga qo'yilgan asosiy talablarni belgilaydigan bo'ladi.

Dastur talablarini o'qituvchi va o'quvchilar bajarishlari shart, uni kengaytirish va qisqartirishga yo'l qo'yilmaydi.

K.D.Ushinskiy shunday yozadi: «O'quvchilar ona tilini o'rganar ekan, u faqat shartli tovushlarnigina o'rganmaydi. Balki ona tilining ona kukragidan ma'naviy hayot va kuchni ham emadi. U o'quvchilarga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar harakteri, u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hech qanday tarixchi bunga qodir emas; U o'quvchilarni xalq udumlari, xalq she'riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hech bir estetik bunga qodir emas, nihoyat u o'quvchilarga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, albatta, boshqa biron-bir faylasuf bunga qodir emas» .

Buyuk pedagogning ushbu soʻzlarida nafaqat ona tilini oʻzlashtirish natijalari, balki uni oʻrganish metodi:

Shunday qilib, oʻqish darslaridagi muayyan badiiy asarni egallashda oʻquvchilarga yordam berar ekan, oʻqituvchi har tomonlama tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Yosh usib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Oʻquvchilarda sheʼr tinglay olish qobiliyati rivojlanadi.

Oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida oʻquvchilar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini koʻrib chiqamiz.

Oʻquvchilarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi - bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil oxanglarni ilgʻab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qaygʻurishdir.

Oʻquvchilar uchun kichik shakldagi sheʼriyat, yaʼni: folklor va mualliflik sheʼriyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oʻquvchilarga bosh qahramonlari xayvonlar boʻlgan, oʻyinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar juda qiziqarlidir.

Oʻquvchilar matallar va sanoq sheʼrlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan oʻyinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yunalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga qoʻloq tutadi hamda ularga taqlid qiladi.

Oʻquvchilar adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. Oʻziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustratsiyalar va oʻyinchoqlarda xursand boʻlib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib koʻtgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan koʻzatib boradi.

Kichikintoylarga muljallangan badiiy asarlar soni unchalik koʻpemas. Shuning uchun ular koʻp martalab takror jaranglashi, oʻquvchilarning kundalik hayotiga

kirib borishi va unda badiiy asarni xis qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflardagi o'qish, avvalo, psixik jarayonlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ularda sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi individual psixik xususiyatlar ancha tarkib topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z idroklarining aniqligi, sofligi, o'tkirligi bilan boshqa yoshdagi o'quvchilardan ajralib turadi. Ular har bir o'rgatilayotgan til materiallariga sinchkovlik bilan qaraydilar, dars jarayonida duch kelinadigan so'zlarni tez qabul qiladilar.

Ona tilini o'rganishga bo'lgan intilishlari ancha ortadi. Bu yoshdagi o'quvchilarda tarkib topa boshlagan sinchkovlik idrokni ancha o'tkirlashtiradi. Ba'zan bu yoshdagi o'quvchilar kattalarning diqqat-e'tiboridan chetda qolgan mayda-chuydalarni ham payqaydilar. Shu bois o'qituvchi dars mashg'ulotlarida sinchkovlikni tarkib toptirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berishi lozim.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar idrokining yana bir xususiyati uning xilma-xilligi, yorqin bo'yoqlar, yaqqol tasvir va his – tuyg'uga boyligidir. Shuning ushun bu yoshda o'quvchilar rangli tasvirlarni, his - tuyg'u uyg'otadigan rasmlarni yoqtiradilar. Ammo bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, me'yoridan ortiq rangli rasmlar o'quvchilarni charchatib qo'yadi va rasmlarga tez-tez murojaat etish uni zeriktiradi. Shuning uchun 2- sinflar uchun “o'qish” darsliklarini haddan ziyod rasmlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq emas.

O'quvchilarning o'qishi, bilim olish xususida gap ketar ekan, diqqatning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ham unutmaslik lozim. “Diqqat, -deb qayd qilinadi. “O'zbek tilining izohli lugat”da, – e'tiborini bir joyga to'plamoq, yig'moq, uni biror narsaga qaratmoq demakdir”.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati xususida fikr yuritilganda uni yetarli darajada barqaror emasligini unutmaslik lozim. Bu yoshdagi o'quvchilar diqqatlarini muayan narsaga qaratib turishda qiynaladilar.

O'quvchilar diqqatining barqarorligi, psixologlar keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, miyada tormozlanish bilan qo'zg'alishning o'zaro nomuvofiq harakat qilishidir.

Oqish mashg'ulotlarida o'quvchilarning ko'p hollarda tutulishi, to'xtab qolishi, so'zni burro, aniq talaffuz eta olmasligi holat tufayli sodir bo'ladi.

Psixologiya fanidan olib borilgan qator tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda 30-35 daqiqadan ortiq o'z diqqatlarini muayan ob'ektga qarata olmasligini ko'rsatadi. Bu o'qish mashg'ulotlarida ta'lim usullarini tez-tez o'zgartirib turishni, o'quv topshiriqlarining rang-barangligini ta'minlashni taqozo etadi. Chunki ta'lim usuli yoki o'quv topshirig'i o'zgartirilishi bilan o'quvchilarning unga munosabati ham o'zgaradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatidagi bu xususiyat vaqti-vaqti bilan mashg'ulotning turini o'zgartirishini, norasmiy darslarning turli-tuman ko'rinishlaridan foydalanishni talab etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Xotira" deganda shaxsning o'z hayotiy tajribasini saqlab turishi va keyinchalik esga tushurishi tushuniladi.

Psixologik adabiyotlarda xotiraning ikki turi:

- 1) so'z – mantiq xotirasi;
- 2) ko'rgazmali - harakatli xotira mavjudligi qayd qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy (so'z - mantiq) xotiradan ko'ra ko'rgazmali - harakatli xotira ancha rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ham ona tilini o'rganish jarayonida nazariy ma'lumotlarni o'zbek tilining imlo qoidalarini tushuntirish orqali o'rganishdan ko'ra sinf taxtasi yoki jadvalda

yozilgan soʻzlarni, rasmda aks etgan narsalarni tushunish ancha oson kechadi.

Maʼlumki, 8-9 yosh oʻquvchilarda xotira ancha mustahkam boʻladi. Shu sababli bu yoshdagi oʻquvchilar oʻrganilayotgan oʻquv materiallining mohiyatini anglab yetishdan koʻra, shu materialni iloji boricha soʻzma-soʻz yodlab olishga harakat qiladilar.

Kichik maktab yoshida oʻquvchilar oʻz oldilariga oʻquv maqsadi qoʻyishda qiynaladilar. Shu boisdan ham ular faoliyatida ixtiyorsiz esda qoldirish muhim oʻrin egallaydi.

Oʻqituvchi boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yoshi bilan bogʻliq ana shu xususiyatni hisobga olgan holda har bir soatlik oʻqish darsidan koʻzlangan maqsadni oʻquvchilar ongiga singdirishga alohida eʼtibor qaratishga toʻgʻri keladi.

Oʻquvchi dars mashgʻulotidan koʻzlangan maqsadni tushunib yetsa, uni oʻrganishga qiziqishi ortadi va oʻquv materialini xotirada saqlab qolishi osonlashadi.

Xotira – tarbiya mahsuli. Shuning uchun oʻqituvchi oʻz oʻquvchilariga materialni eslab qolish uchun muayyan intilishni tarkib toptirishi, asta - sekinlik bilan mantiqiy - aqliy faoliyat usullariga (kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish) oʻrgatib borishi lozim.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun taʼlim jarayonida oʻzini-oʻzi nazorat qilish; oʻrganilgan materialni esga tushurish ; mashq qilishdan unumli foydalanishga toʻgʻri keladi.

I.II. O'qish mashg'ulotlarining samaradorligi tilga olingan ana shu vositalar bilan chambarchas bog'langan. Talaffuzi va imlosi murakkab bo'lgan bir qator so'zlarni bir marta aytishi yoki yozib ko'rsatish bilan o'quvchi xotirasiga kiritish qiyin. Bu so'zlarning imlosini o'zlashtirish faqat qayta – qayta mashq mahsuli bo'lishi mumkin.

Bilishda xayolning ham katta ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim. Xayol deganda o'ylash, fikr yuritish jarayoni tushuniladi.

Xayolning tarkib topishi o'quv faoliyatining ta'siri va talabalari asosida amalga oshadi.

O'quvchilarning dars jarayonidagi ishtiroki, mashg'ulotlarda bo'ladigan savol-javoblar, turli xildagi o'quv topshiriqlarini bajarish, ertak va hikoyalar o'qishi, televedenie eshittirishlarini tamosha qilishi, kinofi'lmnlarni ko'rishi, sayohatlarga borishi xayolni rivojlantirish vositalaridir.

Xayolning eng yuksak ko'rinishi ijodiy xayoldir. Ijodiy xayol surishga tayyor bo'lmagan o'quvchi bilimlarini o'zlashtirib olishda muayyan manbadan (o'qituvchining so'zi, darslik material) chetga chiqa olmaydi. Xayoli yetarli darajada taraqqiy topmagan o'quvchi o'quv materialini o'rganishi uchun ko'p kuch va vaqt sarflaydi, ammo yaxshi natijaga erishmaydi.

Maktabda o'quvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan bo'lib, u maktabda o'qish jarayonida takomillashib boradi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda o'quvchilardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o'zgarishga uchraydi, ya'ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'qishning dastlabki paytlarida o'quvchilar konkret tafakkur qilishadi.

Ta'lim ta'siri bilan asta-sekin ularda tahlil qilinayotgan yoki o'rganilayotgan ma'lumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Ma'lumki, psixologlar tafakkurining ikki darajada namoyon bo'lishini qayd qiladilar:

1) reproduktiv (tasavvur etish) tafakkur;

2) ijodiy tafakkur. Reproductive taffakur o'quvchining tayyor bilimlar olishi va ularni tushunib olib, og'zaki yoki yozma ravishda eslab qolishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy tafakkur jarayonida o'quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda, aqliy faoliyat usullarini ishga solgan holda egallaydi.

Bir soatlik dars mashg'ulotida o'qituvchi o'zni kelganda reproduktiv tafakkurga, o'zni kelganda esa ijodiy tafakkurga tayanib ish ko'radi.

Ta'limning samaradorligi o'quvchilardan hukm va xulosalar chiqara olish qobiliyatini ham talab qiladi.

O'qish mashg'ulotlarida hukm va xulosalar chiqarish; unli va undosh tovushlarni, so'z va qo'shimchalarni, gap qurilishlarini o'zaro qiyoslash; ularning o'xshash- farqli tomonlarini aniqlash; uyadosh so'z va qo'shimchalar ro'yxatini tuzish; ularni muayyan belgilariga qarab guruhlash singarilar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf oquvchilarini bu aqliy faoliyat usullarini bajarishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy faoliyat usullariga o'rgatish, avvalo, o'quvchini ta'lim jarayonining sub'ekti (faol ishlovchisi) ga aylantirishni taqozo etadi.

O'quvchi ta'lim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlarga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil davom ettirish mumkinligini anglab yetadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib hukm va xulosalar chiqara oladi.

O'quvchining ta'lim jarayonining sub'ektiga aylanishi, o'qituvchini bu jarayondan chetda qoldirilmaydi, aksincha, uning ta'sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o'qituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashkilotchiga, bevosita o'quvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o`zaro chambarchas bog`langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta`lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e`tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko`zlagan natijani bermaydi.

Til hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlanganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi. Masalan, “Shaxsning xususyatini ifodalovchi so`zlar” mavzusini o`rganishda insonning xususiyati, uning belgilarini ifodalovchi so`zlar aralash holda berilgan mashqdan faqat insonning xususiyatini bildiruvchi (mas, chiroyli, xushmomila, serjahl, bosiq, samimiy, o`jar v.h) so`zlarni bir uyaga guruhlash topshiriladi. Ayniqsa, namuna sifatida bir uyaga mansub 2-3 ta so`zni berib, bu so`zlar ro`yxatini mustaqil davom ettirish, o`quvchilarda aqliy faoliyat usullarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri bo`lib unda o`quvchilarni o`qiush darslarida ham og`zaki ham yozma nutqlari shakllantiriladi.

O`qish darslarida o`quvchilarning o`qishga bo`lgan qiziqishlari hamda uning dunyoqarashlari shakllantirishlari orqali nutqini boyitish muhim omil hisoblanadi. Psixologik adabiyotlardan qiziqishning ikki turi bizga ma`lum.

O`quvchilarning badiiy asarga bo`lgan qiziqishlari birinchi navbatda muayyan faoliyat jarayonida qo`zg`aladigan qiziqish bo`lsa, ikkinchisi, maqsad qiziqishi bo`lib, tashqi ta`sir natijasida o`quvchi oldiga muayyan maqsadini qo`yib, uni shunga qiziqtirishdir.

Har bir o`qituvchi o`z faniga nisbatan barqaror, bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga erishishlari lozim. “O`qish” faniga qiziqtirish dars mashg`ulotlarini qiziqarli tashkil etish, topshiriqlarning rang-barangligiga erishish, ko`rgazmali, aydiovizual va texnik vositalardan unumli foydalanish, dars mashg`ulotlarining amaliy yo`nalishini kuchaytirish, o`quvchini ta`lim jarayonining sub`ektiga aylantirish singari omillar bilan chambarchas bog`langan.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o`zaro aloqa va xabar funksiyasini, o`zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta`sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O`quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta`lim olish qurolidir.

Nutq o`stirish nima? Agar o`quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko`zda tutilsa, nutq o`stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug`ati, sintaktik qurilishini, bog`lanishli nutqni) aktiv amaliy o`zlashtirish tushuniladi.

Agar o`qituvchi ko`zda tutilsa, nutq o`stirish deganda, o`quvchilar tilning talaffuzi, lug`ati, sintaktik qurilishi va bog`lanishli nutqni aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va priyomlarni qo`llash tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o`quvchilar nutqini o`stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo`lishi kerak. O`quvchilar nutqini o`stirishning metodik talabi o`quvchi o`z fikrini, nimanidir og`zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo`lishi lozim. Bu material qanchalik to`liq, boy, qimmatli bo`lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo`ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so`z, utq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo`ladi. Shuning uchun nutq o`stirishning uchinchi sharti -nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Boshlangich sinflarda shu o`qinda badiiy asar turlaridan hikoya, she'r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o`rganiladi. Ulardan tashqari, ilmiy-ommabop maqollarni o`rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Turli janrdagi badiiy asarlar kurilishi, o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, o`quvchilarga ta`siri ham har xil buladi. Shunga ko`ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o`qishda o`qituvchi unga mos metodlarni tanlashi talab etiladi.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo`lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea hayotning muhim tomonlari uumlashtirib tasvirlanadi. «Hikoya ko`pincha

kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir».

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni asar qahramonning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'prok qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan ixohli lug'at darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi.

Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. Hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni takkoshlash, voqea-hodisalar, xatti-xarakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, shu bois ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi.

Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish asosiy o'rin egallaydi.

Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, uz mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan daslabki savollardan maqsad o'quvchilarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima qaqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, hayotiy personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda asar syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar ko'rilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulk-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yokadi va ishii jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va vokealar orasidagi boglanishni tulik esda saklab kolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o'quvchilar yaxshi uzlashtirishlari, unda ilgari surilgan royani bilib olishlari uchun tekst bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish, jikoya kismiga uzlari savol tuzishi, suz bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Kichik badiiy hikoyani ixohli o'qish darsni uyushtirishda quyidagi plan varianta sxemasi e'tiborga olinadi:

- 1) hikoyani o'qishga tayyorlash hikoyada tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika...);
- 2) hikoyani (tuliq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchining ifodali o'qishi;
- 3) idrok etishni tekshirish qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suxbat
- 4) hikoyani qayta o'qish (hikoyani qismlarga bulish, o'quvchilarga o'qitish, ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);
- 5) hikoyaning har bir bo'limi yuzasidan suhbat o'tkazish va sarlavha topish; hikoya rejasini tuzish;
- 6) hikoyaning ayrim bo'limlarini ifodali o'qish;
- 7) reja asosida qayta hikoyalash;
- 8) hikoyani ifodali o'qishga yoki saxnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);
- 9) hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash.

Bu hikoyani o'qish darsi planining varianti bo'lib, o'zgarishi ham mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, badiiy hikoyani o'qish darsida uning mazmunini, asosiy fikrini bilish bilan birga, asarning tarbiyaviy (badiiy asar misolida o'quvchilarni tarbiyalash), xususan, estetik ta'siri ham kuzda tutiladi va ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi.

Ertak xalk ogzaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi.

Ertaklarning kupida real xayot tasviri fantastik elementlar bilan qushilib ketadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ertak bilan amaliy taiishtiriladi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi; undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgu kuchning - yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi.

Ertakda qabul qilingan hikoya qilish formasi, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, oxangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir.

Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochkuz obrazlarga bulinadi.

Ertakning pedagogika qimmatini shundan iboratki, bolalar unda xalollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan kutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ruyobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo'lishini istaydilar.

Ertak bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib baholash ko'nikmasini o'stiradi.

O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? Nima uchun? ... nima uchun jazolandi (yoki rarbantlantirildi)? Nima uchun ertakdagi ba'zi qaxramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi, ba'zilaridan esa, aksincha, yuz ugiradi? kabi savollarga javob berish uchun uylaydilar, ertak qaxramonlarining xatti-harakatini muhokama qilib, uni baholashga o'rganadilar.

Masalan, «O'r to'qmoq» ertagidagi asosiy fikr yaxshilikka-yaxshilik kaytishi, yovuzlik qoralanishini ifodalashdan iborat bo'lsa, «Donishmand» ertagida axillikka undashdan iborat.

Ertakda xalq o'z xayotini o'zi hikoya qiladi, shuning uchun o'quvchilar ertakni o'qish bilan ma'lum davrdagi xalk xayotiki, uylari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Ertak o'quvchilar nutqini o'stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak teksta bog'lanishli nutqni o'stirish uchun zarur material beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ertakni juda qiziqib obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarni, shuningdek, ertakning o'ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini saqlagan holda jonli aytib beradilar.

Boshlanrich sinflarda xayvonlar xaqidagi ertaklar ko'prok o'qitiladi. Anvar Obidjonning «Burining tabib bulgani haqida ertak», «Kuzacha bilan Tulki», «Olapar, Mosh, Musicha» kabi ertaklar aniq-xayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi.

Matn bilan ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning uzlari savol tuzib, javob berishlari, so'z bilan grafik rasm chizish, plan tuzish, qayta hikoyalash, ertak aytish kabi ih turlaridan foydalaniladi. Bu ertaklarda xayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi xayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-biriga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini xayotiy hikoya kabi qabul qiladilar.

Ertakni o'qib, tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-xarakati, o'zaro munosabatlarini tug'rn tasavvur etishga yo'naltiriladi.

Ertak ustala ishlashning oxirgi bosqichida «Ertakda sizga juda yoqqan joyini o'qing, nima uchun yoqqanini ayting, hayotingizda mana shu ertakdagiga o'xshash voqealar bo'lganmi?» kabi savol-topashqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Ertak o'quvchilar uchun ertakligicha qolishi va bolalar hayotidagi xodisalarga avtordek yondashishga o'rganishlari uchun shuning o'zi kifoya.

Boshlanrich sinf o'quvchilari xayvonlar xaqidagi ertaklardan tashqari, «Davlat», «Tuz xaqi», «Ovchi, Kukcha va Dono», «Ilm afzal» kabi ertaklarni ham o'qiydilar. O'quvchilarni bunday ertaklarni o'qishga tayyorlash ilmiy-ommabop tekstlarni o'qishga tayyorlash kabi bo'ladi (kuzatish, ekskursiya, predmet daryolari), ertakni o'qish va tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi.

Bolalar o'qituvchi raxbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulk-atvori, ayrim xatti-xarakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar xahida xulosalar chiqaradilar, ertak planini tuzadilar, ertak qismlarini rollarga bo'lib o'qiydilar. Bulardan tashkari, bolalar 2-sinfda «Davlat» ertagini o'qiydilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi.

2-sinflardayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni (agar ertak xajmi katta bulmasa) o'qituvchi aytib berishi mumkin.

Yuqoridagilarni xisobga olganda, ertakni ixohli o'qish darsining kurilishi quyidagicha bulishi mumkin:

- 1) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- 2) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi;
- 3) ertakni o'quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suxbat o'tkazish;
- 4) ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undan ayrim tasviriy vositalar, sinonim so'zlarni topish, ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish;
- 5) ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);
- 6) ertakni aytish;
- 7) umumlashtiruvchi suxbat (ertak g'oyasini ochish);

- 8) ma'lum vazifa bilan ertakni qayta oq'ish;
- 9) vazifani tekshirish va yakunlash. (Nima uchun ertakni qiziqib o'qidik?)
- 10) uyda boshqalarni ham qiziqtiradigan qilib ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

I.III. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar faqatgina xalq manfaatlari uchun, uning baxt-saodati uchun xizmat qilayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Shu bois ham biz buni «Mustaqillik in'omi», «Mustaqillik imkoniyatlari» deya baralla aytishimiz mumkin. Chindan ham biz muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida qadrimiz, qadriyatlarimiz, qaddimiz tiklanayotgan davrda yashayotgan ekanmiz, yosh avlodni - o'sib-ulg'ayib kelayotgan o'quvchilarimizni milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlar, vatanparvarlik, milliy tarbiya ruhida - milliy dastur talablari asosida kamolga yetkazmog'imiz lozim.

Shunday ekan, pedagogning ish ko'lamini kengaytirish bugungi o'qituvchining asosiy faoliyati sanaladi. O'qituvchidagi intellektual salohiyat - ishchanlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik xususiyatlari ta'lim mazmunining boyishida alohida va muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarning yangi-yangi usullarining qo'llanilishi darslarning rang-barang qiziqarli tarzda o'tishiga olib keladi, o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi maqolamiz har bir o'qituvchining o'qitishning ilg'or, samarali usullariga, yangilik tarzidagi uslublarga tayyor bo'lishi xususida boradi.

Avvalo, «pedagogik texnologiya» haqida ikki og'iz so'z. Bu atama mutaxassislar tomonidan turlicha tahlil qilinmoqda. Jumladan, yangicha o'qitish uslubi, o'quv jarayonini nazorat qilish yoki boshqarishning ilg'or tajhbalari, o'quv jarayonini tashkil qilish va tahlil qilishga nisbatan yangicha yondashuvlar «pedagogic texnologiya» deb yuritilmoqda.

Demak, pedagogik texnologiyani joriy qilish jarayoni yangicha yondashuvlar, yangilik kiritish jarayoni, deb qabul qilinar ekan, maqsadimiz ham o'qituvchilarni ana shu jarayonga - innovatsion faoliyatga tayyorlash haqidaligi ravshan bo'ladi.

Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida «ta'lim texnologiyasi»

tushunchasi e'tirof etilgan vaqtda paydo bo'ldi. O'sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo'lishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'grisida ma'lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat bu - ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo'nalish tarkib topdi. Bu esa o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

Xo'sh, «Innovatsiya» so'zining ma'nosi nima? Bu so'z inglizcha «inoveyshin» so'zidan olingan bo'lib, yangiliklar kiritish, degan ma'noni bildiradi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga tadbiq etish, innovatsion faoliyatlarni tahlil qilish orqali bu faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Demak, innovatsion faoliyat pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Bu faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlab, uni takomillashtirib berishdan iboratdir.

Shunday ekan, o'qituvchining darsi qiziqarli, samarali o'tishi uchun u pedagogik innovatsiyalarning yangi-yangi uslublarini izlab topishi, uni chuqur tahlillar ostida eng samaralisini tanlab olishi hamda amaliyotda qollashi lozim. Buning uchun u eng avvalo, innovatsiyalar haqida aniq ma'lumotlar jamg'armasini yaratishi zarur.

Nafaqat yaratishi to'plashi, balki uni tasvirlab, tushuntirib, ifodalab ham bera olishi kerak. Ular yarim yillik bo'yicha metodik tavsiyalar va qoidalar sifatida taqdim etilishi ham mumkin. Chunki innovatsion faoliyatning miridan-sirigacha hammasi yozib kiritilmaydi, ular o'z-o'zida ma'lumdek, tushunarlidek taassurot uyg'otadi. Ularning barchasi jonli faoliyatda namoyish etiladi.

Demak, yangilik kiritish jarayonida qabul qilingan modeli amaliy qo'llaniladigan dasturga aylantirish uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatga tayyorgarlikda bu faoliyatning zarurligini tushunib yetishi, innovatsiya kiritishga qaratilgan harakatlar samara keltirishiga ishonishi lozim.

O'qitishning bu usuli orasida didaktik o'yinlar va obrazli o'quv o'yinlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yinlarning metodik asoslari 4 bosqichni qamrab olgan: o'rganiladigan mavzuning tanishtirilishi, oyin jarayonining yaxlit ko'rinishi, ssenariydagi holatlar bayoni (darhaqiqat, bunday o'yinlarni o'tkazishda eng katta ahamiyat uning ssenariysining yozilish darajasiga qaratiladi), jumladan, ssenariyda o'yin sharoitlari tasvirlanishi, o'yin ishtirokchilari harakatlari yoki holatlarining ishlab chiqilishi, ularga metodik ko'rsatmalar yaratish kabi masalalar bayon qilinadi. Shu asosda o'yin harakatlari tashkillashtiriladi. Uni o'tkazishda uchragan noaniqliklar bartaraf etiladi.

O'yin jarayonidagi barcha muammoli vaziyatni «yashab o'tish» o'yin harakatini yanada ochib beradi. Bundan tashqari pedagogning innovatsion tayyorgarligida o'quvchilar bilan muloqot - dialog, sherikchilik, maqol-matallardan foydalanish, topishmoqlarni qo'llash, hududiy o'yinlardan, ashulalardan, hazil-mutoyibalardan foydalanishning ham ahamiyati benihoya katta. Yana nazorat ishlari, rollarga ajratib beriladigan o'yinlar ham sinovdan yaxshi natijalar bilan o'tgan metodik tavsiyalar hisoblanadi. Bularning barchasi o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligida yoki tayyorgarligini oshirishda jiddiy va zaruriy zahira hisoblanadi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini murakkab jarayon sifatida baholash mumkin. Chunki yuqorida aytib otilgan usullar o'qituvchi tomonidan ijodiy boyitiladi, rivojlantiruvchi axborotlar bilan to'ldiriladi.

Bular shunchaki gaplar emas, natijasi samarali, tajribadan muvaffaqiyatli o'tgan, tasdig'ini topgan tavsiyalardir.

Yuqorida bildirilgan nisbatan umumiy va tor ma'nodagi fikrlardan tashqari pedagogning innovatsion tayyorgarligini fanlararo tizim, tarixiy, zaruriy va qonuniy tizim sifatida baholaganda ham uning mohiyatidan kelib chiqiladi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan qaralgan innovatsion faoliyatga tayyorgarlik o'quvchining barcha-barcha sifatlarini hisobga olib ish ko'radigan murakkab jarayondir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli poyoniga yetkazish - ro'yobga chiqarish keng qamrovli maqsadlarga, qarama-qarshiliklarga, analitik, axborot va metodologik yo'nalishlarga tayanishni taqozo etadi.

Innovatorlar - yangiilik yaratuvchilar esa, shubhasiz, milliy ta'lim-tarbiya tizimin takomillashtirishda, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishishlari tayin.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. O'qishning dastlabki bosqichida orfografiya o'qishdan foydalanilsa sekin- asta orfoepik o'qitish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bo'g'inlab o'qikishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq-yopiq bo'g'inlarni farqlashga o'rgatish muhim sanaladi.

O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy xarakterni ham talab qiladi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

Kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lgan uzluksiz ta'lim yosh aviodda kasbiy mahorat, ijodiy, siyosiy faollik, erkin fikr yuritish kabi qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat. Bunda, avvalo, tahsil oluvchilarning faolligini oshirish talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlarini o'stirishda ta'limning interfaol usullaridan keng hamda o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga o'quvchilarda mehnat ta'limiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda tizimlilik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik, o'qitish ishlarining natijalarini

nazorat qilish hamda baholashga yangicha usullarni joriy etish kabilar yetarlicha o'z aksini topmog'i darkor.

Bugungi kunda maktablarimizdagi o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirishda ta'lim va tarbiyaning faol usullaridan, o'qitishning, nazorat ishlarini o'tkazishning maqbul shakllaridan oqilona foydalanish yo'llarini izlab topish dolzarb masalalarga aylanib bormoqda.

Ma'lumki, o'qitish usullari o'qituvchining o'quvchilar bilan muayyan maqsadlarga erishish yo'lidagi faoliyatidan tarkib topgan bo'lib, kimga nimani qanday o'rgatish zarurligi haqidagi masalalarni ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish va ularning mustaqil, ijodiy fikrlashlari uchun qo'llaniladigan shakl va usullarni mos ravishda tanlash kelgusida kadrlar tayyorlashda o'z samarasini beradi.

Boshqa o'quv predmetlari qatori mehnat ta'limi dasrlarida ham o'quvchilar ma'lum hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlari kerak. O'qitishdagi muhim vazifalardan biri dars va amaliy mashg'ulot jarayonida oluvchilarning bilim darajasini aniqlash, uni to'g'ri baholash hisoblanadi.

O'z bilimining boshqalar tomonidan to'g'ri, haqqoniy baholanishiga ishonch hosil qilgan o'quvchida o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqish, o'ziga nisbatan esa ishonch ortadi.

Aksincha, o'quvchining bilimini baholashda nohaqlikka uo'l qo'yilsa, asta-sekin uning o'qishdan ko'ngli soviy boshlaydi, bilim olishga nisbatan befarqlik alomatlari yuzaga keladi.

Ma'lumki, turli fanlar darslarini o'qitishda o'quv dasturlaridan va o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilar bilimiga turlicha talab qo'yiladi.

Hozirgi kunda o'quvchilar bilim darajasini aniqlashning yangidan-yangi usullari qo'llanilmoqda.

Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, aksariyat o'qituvchilar o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Ko'p hollarda o'quvchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha egallagan bilim hamda ko'nikmalarini aniqlash va baholash eskicha usullarda, ya'ni oddiygina savol-javob tarzida olib borilishi ulardagi fanga bo'lgan qiziqishni susaytirib qo'ymoqda.

Darsning strukturaviy tuzilishiga ko'ra esa, o'qituvchi hamma bosqichlarni o'z vaqtida, me'yorida olib ulgurishi kerak. Bu esa sinfdagi barcha o'quvchilar bilimini baholashga bo'lgan imkoniyatni cheklaydi.

Darsning asosiy qismi - «Yangi mavzu bayoni»ga 30-35 daqiqa ajratiladi, natijada mustahkamlash va o'quvchilar bilim darajasini baholashga uncha ko'p vaqt qolmaydi. Bu esa o'quvchilarga berilgan saboq natijalarini aniqlashning yangi, kam vaqt talab qiladigan usullarini qo'llashni taqozo etadi. Shuning uchun biz mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar bilimini baholashning test usulini qo'llashni afzal ko'ramiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim va ko'nikmalarni baholashning maqbul usullaridan biri - testdir.

O'qituvchi o'quvchilarga darsda 2 xil variantda test materiallarini tarqatadi. O'quvchilarni nazorat qilish a'lochi o'quvchilarga (O'quvchilar sonini 2 da bo'lib) topshiriladi.

O'z-o'zini nazorat qilish natijasida test savollarini yechishga kirishadilar. Testlarni tekshirish uchun yig'ishtirib olinib, almashtirib tarqatiladi. Javoblar 2 ta o'quvchi tomonidan o'qib beriladi.

Natijalarni baholashga 10-15 daqiqa sarflanadi. Qolgan vaqtlarda darsning boshqa bosqichlari amalga oshiriladi.

O'qituvchi 100 foiz o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshiradi va baholarni e'lon qiladi. Qisqasi, o'quvchilarning bilimi bu usullar orqali baholanganda ko'p vaqt ketmaydi.

Aksincha, kam vaqt ichida ko'p o'quvchilarning bilim darajalari aniqlanadi. Xulosa qilib aytganda, bu usuldan dars jarayonida foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, sinfdoshlariga xolisona baho berish, o'z kamchiliklarini ko'rish va tuzatish kabi sifatلامي shakllantiradi.

O'quvchilarlik atalmish davr qisqa muddatda kechsa-da, uning taassurotlari, yodi umrbod esda qoladi. Shunga ko'ra, umrimizning ilk davrini o'ziga xos dunyo deyish mumkin. Qisqa, ammo chin ma'noda murakkab va jozibador bo'lgan bu dunyoning badiiy in'ikosi hisoblangan O'quvchilar adabiyoti bir qarashda kattalar uchun ermakka o'xshab tuyuladi. Balki shu bois bo'lsa kerak, adabiyotning bu turi ba'zan nazar-pisand ham qilinmaydi.

Aslida-chi? Nafsilambrini aytganda, O'quvchilar adabiyotining jamiyat ma'naviy hayoti va vatan istiqbolidagi roli beqiyosdir.

O'quvchilar yozuvchisining kitobxon oldidagi mas'uliyati ham, baxti ham shuning bilan belgilanadi. Uning kitobxonlari doirasi ancha keng. O'quvchilarga bag'ishlab yaratilgan asarlarni kichiklar ham, kattalar ham birdek sevib o'qiydi, zavqlanadi. Juda bo'lmasa, O'quvchilarligida o'qib olgan zavq-shavqini bobo-buvi bo'lganda ham unutmaydi.

Shoir, dramaturg, nosir, tarjimon va noshir Shukur SA'DULLA shunday ijodkorlar toifasiga mansub. Shoirning 50-yillar she'riyati O'quvchilarni cheksiz quvonchlarga chulg'agan:

Yomg'ir yog'aloq

Yam-yashil o'tloq,

Endi ekinlar

Chiqarar quloq.

(«Yomg'ir yog'aloq»)

yoki:

Oydin, Lola g'oz bo'ldi,

O'yinimiz soz bo'ldi,

Bolta bir o'zi tulki,

Turishi bo'ldi kulki.

(«Tulki bilan g'ozlar») deb boshlanuvchi dilkash va quvnoq, o'ynoqi she'rlarini hozir nevarali bo'lganimizda ham sog'inch bilan eslab yuramiz. Ular hozirgacha darslik va xrestomatiyalardan tushmay, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanib qolgan.

Shukur Sa'dulla va uning hayoti, ijodi haqida gap borar ekan, avvalo, uning o'rta maktabda o'qib yurganidayoq badiiy adabiyotga ishtiyoqi kuchli bo'lganligini e'tirof etmay bo'lmaydi.

Shukurjon ijodini ancha erta — 30-yillardan boshlaydi. 1932 yili bosmadan chiqqan «Hayqiriq» nomli ilk to'plami yosh shoirning kelajakka umid va ishonch uyg'otadi. Shundan keyin ketma-ket «Uch ayiq», «Ayyor chumchuq», «Sen nima qilding?», «Shohista», «Dumsiz tulkilar» to'plamlari e'lon qilinadi.

Shoir she'rlari, asosan, kichik yoshdagi O'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, hayotdagi voqea-hodisalarga, narsa-buyumlar mohiyati, ko'rinishi va ahamiyati haqida muayyan tushunchaga - bilim berishga qaratilgan. Masalan, yuqorida tilga olganimiz «Yomg'ir yog'aloq» she'rining birinchi to'rtligida yomg'ir yoqqach, o'tloqlarning yam-yashil bo'lishi, ekinlarning quloq chiqarishi to'g'risida umumiy ma'lumot beriladi.

Ikkinchi to'rtlikda esa yomg'ir yog'ishi bilan bog'liq manzara chiziladi. To'g'rirogi, kitobxon diqqati tanish bo'lsa-da, unchalik e'tibor beravermaydigan manzaraga jalb qilinadi.

Ya'ni, gap yomg'ir suvlarining tarnovlardan oshib, shoshib tushib, ariqlarga quyilishi haqida ketadi. Ammo u oddiy ma'lumot emas. Tarnovlardan oshib, shoshib tushishi kichik kitobxon ruhiyatiga juda mos keladi. Shu bois, u kitobxonga ma'lumot berish bilan birga zavq ham bag'ishlaydi, fikr uyg'otadi.

Misralardagi hijolarning qisqaligi (har misra 5 bo'g'indan iborat) va to'q qofiyalarning (yog'aloq-o'tloq-quloq; oshib-shoshib-toshib va hokazo) qo'llanilishi she'rning badiiy soddaligini, misralarning ovoz uzmay, bir zarb bilan o'qilishini ta'minlaydi.

Shoir asarlari yutug'ining omillaridan yana biri qofiyadosh so'zlardan tashqari misralarning ichida ham o'xshash, hamohang tovushlardan unumli va o'yinli foydalanishidir. Masalan:

Men qushchaman - kichkina,

Tillarim chuchukkina.

Ola-chipor qanotim,

Bilsangiz, «Chittak» — otim.

She'rdagi «qushchaman», «kichkina», «chuchukkina», «ola-chipor», «chittak» so'zlaridagi ch tovushining takror-takror kelishi asarga ravonlik bag'ishlaydi, qolaversa, o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stiradi.

Kichkintoylarning ruhiy olami va yosh xususiyatlarini chuqur bilgan Sh. Sa'dulla asarlarining katta qismini syujeti, voqeband she'rlar tashkil qiladi.

Ma'lumki, voqebandlik, ayniqsa, o'quvchilar asari uchun muhim ahamiyatga yega. Bunday she'r o'quvchilarni zeriktirmaydi. U xuddi hikoya yoki ertak kabi o'quvchilar ongiga, xotirasiga oson singadi».

Sinchiklab ko'zdan kechirilsa, Sh.Sa'dulla she'rlaridagi voqebandlik xalq og'zaki ijodining samarali ta'siri natijasi ekanini fahmlash qiyin emas.

Darhaqiqat, shoir qator xalq ertaklarini qayta ishlab, «Dumsiz tulkilar», «Ikki sandiq», «Uch tulki», «Qarg'avoy», «Tulki bilan Turna» nomlari ostida chop ettiradi. O'zi ham «Ikki donishmand», «Ayyor chumchuq», «Laqma it», «Och bo'ri, sho'x qo'zi va qirchang'i» kabi talay ertaklar yaratdi.

Adibning «Kachal polvon», «Yoriltosh» asarlari ham xalq og'zaki ijodidan ruhlanib yozilgan. Filologiya fanlari doktori O.Safarov: «Xalq ertaklari ustidagi qizg'in amaliy ijodiy faoliyati jarayonida Shukur Sa'dulla ko'p narsa o'rgandi, xalq ijodiy iabcxatoriyasining aslahalari bilan qurollana bordi, xalq tiliga xos donolik, burrolik, samimiylik, qochirimdorlikning barcha sirlaridan voqif bo'la bordi», deganida tamoman haqdir.

O'quvchilar adabiyoti xususida so'z yuritganda uning tarbiyaviy vazifani bajarishiga hamisha alohida urg'u beriladi.

Aslida shunday bo'lishi tabiiy. Negaki, u nima yaxshiyu nima yomonligini tushunishga, hayotni va o'zligini anglashga, axloq-odobga o'rgatadi. Bu xususiyat, shubhasiz, Sh.Sa'dulla asarlariga ham taalluqlidir. Shoir «Tulki bilan g'ozlar», «Mitti», «Uloqcha», «O'quvchilar bilan torg'ay», «Chuchvara qaynaydi», «To'rt fasl» kabi she'rlariga tarbiyaviy ruhni nihoyatda ustalik bildan singdirgan.

Tasvirda qisqalik, ravonlik ijodkorning kichik hikoyalari ham xos yetakchi xususiyatdir. Ular, hatto, hajm jihatidan kichik she'rga teng bo'lib, mag'zi

to'q va u yoki bu masala haqida kitobxonda yaxlit tasavvur uyg'otishga qodir. Masalan, chol bilan o'quvchilarning suhbat shaklidagi «Anqov» hikoyasi bor-yo'g'i bir necha satrdan iborat. Ammo uning kattayu kichikka xos anqovlik illati haqida ma'lum tushuncha berishiga shubha yo'q.

Har qanday illatning o'quvchilarlikdan boshlab shakllanishi nazarda tutilsa, bu xildagi asarlarning tarbiyaviy qimmatini yanada ortadi.

Adibning «Komandirning boshidan kechirganlari», «Kachal polvon», «Aziz qishlog'im» qissalari o'zbek va rus tillarida qayta-qayta nashr qilindi. «Yoriltosh», «Afsonani yenggan qiz» ertak-pyesalari uzoq yillar teatrlarimiz sahnasidan tushmadi.

Shukur Sa'dulla ko'p qirrali ijodkor edi. Jahon va rus adabiyoti namoyandalaridan G.X.Andersenning qator ertaklari, A.S.Pushkin, S.Marshak, S.Mixalkov, K.Chukovskiyning she'r va ertaklari, L.Tolstoy, B.Jitkov, V.Oseyevalarning qissa va hikoyalari Shukur Sa'dulla tarjimasida o'qib kelinmoqda.

Qudrat Hikmatning obrazli ta'rifi bilan aytganda, Shukur Sa'dulla o'zbek o'quvchilar adabiyotining «kapitan»laridan biri edi. Uning asarlari hali juda ko'p avlodlarni chin insonlikka o'rgatadi, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat etadi.

II BOB 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar bilimini nazorat qilish metodikasining amaliy asoslari

II.I. Har bir o'qituvchining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi - tildir. Xalqimizda shunday naql bor: «Bola - shirin so'zning gadosi». Shunday ekan, o'qituvchi muomala jarayonida juda ehtiyotkor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: «Shirin so'z - ko'Yigillar uchun bamisoli asaldir».

Shuning uchun ham o'qituvchi har doim nutq madaniyatiga qattiq e'tibor berishi, o'zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna sifatida namoyon etishi muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining faoliyati faqat darslarini o'tish bilan cheklanmaydi, uning vazifasiga «Ifodali o'qish» to'garaklari, «Yosh adabiyotchilar» klublarini tashkil etish kechalari hamda tanlovlarni tayyorlash va o'tkazish, o'quvchilarning nutq madaniyatini nazorat qilish, badiiy adabiyotlarni o'qish va ulami uyushtirish, bolalar va qo'g'irchoq teatri ishini yo'lga qo'yish kabi tadbirlar ham kiradi. Kattalarga - ota-onalar, o'qituvchilar va yetakchilarga nutq madaniyati haqida bilimlar berish ham shular jumlasidandir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qzining kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun ana shu faoliyatga doir hamma ishlarni bajarishi shart va bular quyidagilardir:

- ta'lim-tarbiya jarayonining hamma qismlarini belgilash ishlari: tashkiliy-mazmunli ish (nutq madaniyati bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlarining mazmunini tanlash);
- pedagoglar jamoasi, ota-onalar va jamoatchilik bilan o'zaro hamkorligi;
- nutq madaniyatini shakllantirish jarayonining rejasini amalga oshirishga doir tashkiliy ishlar;
- har bir o'quvchida nutq madaniyatini shakllantirish va jamoaning takomillashuvini oldinroq ko'ra bilishi, o'g'il-qizlarni kamol toptirish vazifalarini belgilashi va izchil amalga oshirishidan iborat rivojlantiruvchi ishlar;
- o'qituvchilarda milliy va ma'naviy qadriyatlarning muayyan tizimi, nutq faoliyati va madaniyati, dunyoqarash va dunyoni bilishga bo'lgan munosabatni shakllantirishga yo'naltiruvchi ishlar.

Nutq madaniyatini shakllantirish o'qituvchidan quyidagilarni:

- o'quvchilarning qobiliyatlarini, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini, nutq madaniyati haqidagi bilimlarini, ularning muloqot haqidagi ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish dinamikasini o'rganishni;

- o'qitish usullarini o'rganish va ularni muvaffaqiyatli qo'llash sharoitlarini aniqlashni;

- uslubiy qo'llanmalar va ishlanmalarni o'rganishni (ularni tanqidiy baholashni);

- o'zining va boshqa o'qituvchilarning ijobiy hamda salbiy tajribalarini tahlil qilishni;

- ishning samarali usullari va shakllarini umumlashtirish hamda ulardan o'z amaliyotida foydalanishni;

- muntazam ravishda pedagogik kuzatishlar va tajribalar o'tkazishni talab qiladi.

Nutq madaniyatini shakllantirish ishlari o'quvchilarga, maktab jamoalariga, otalarga, jamoatchilikka o'zining nutq, muloqot madaniyati bilan ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Bu ishlar faqat dars faoliyatida (she'r aytishda, ifodali o'qishda) pedagogik mahoratni egallashnigina emas, balki o'quvchilarning nutq faoliyatini boshqara olishini ham taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z fanini sevishi, unga ishtiyoq bilan yondashishi, o'quvchilarni yaxshi ko'rishi, nutq madaniyati vositalari bilan o'qitish va tarbiyalashga qiziqishi lozim. Bulardan tashqari u o'z mahoratini muvaffaqiyatli rivojlantirishi uchun pedagogik, artistlik va ijrochilik qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi yaxshi pedagog bo'lishi, o'z ishini ham, o'quvchilarni ham sevadigan barkamol o'qituvchi ekanini ko'rsatishi mumkin.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilimlari mazmunini ma'naviy-ma'rifiy, psixologik- pedagogik va maxsus bilimlar tashkil qiladi. Ma'naviy-ma'rifiy bilimlar o'qituvchi dunyoqarashi nuqtai nazarining poydevori, undagi kasbiy va maxsus bilimlarning metodologik zahirasidir.

Psixologik-pedagogik bilimlar esa o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi uchun asos sifatida xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchi qobiliyati, ruhiyati hamda yosh xususiyatlarini, nutq madaniyatining shakllanishidagi sharoitlarini bilishi zarur.

Nutq madaniyati haqidagi bilimlar boshlang'ich ta'lim pedagogikasining tarixi va nazariyasini ham, muomala madaniyatini o'rgatish uslubiyotini ham o'z

ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, avvalo, o'quvchilariga umumiy estetik tarbiya berish vazifalarini tushunib olishi lozim. Bu vazifalar faqatgina yaxshi muomala qilishni o'rgatishdangina iborat bo'lib qolmasligi kerak. Bunda, eng muhimi, bolaga nutq madaniyatini o'rgatish va unda har bir mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otish, so'z, gap yordamida nutqiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilish, shuningdek, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdir.

O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar me'daga tegib ketar darajada bo'lmasligi, o'quvchi sezmaydigan yo'sinda doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak.

O'qituvchi o'quvchining nimalarga qiziqishi, nimalarni o'qishi va yaxshi ko'rishini, uydagi sharoiti, oilasidagi munosabatlari va hokazolarini bilishi lozim. Mana shularni bilib olish maqsadida o'tkaziladigan suhbatlar beixtiyor boshlanishi va qiziqarli hamda ishonarli tarzda borishi, suhbatlar natijasida o'quvchi aytilayotgan narsalarga o'qituvchi haqiqatan qiziqayotganini, suhbatlarni faqat o'zining majburiyati sifatida o'tkazmayotganini tushunib yetishi lozim. O'quvchilar bilan (yakka tartibda yoki jamoa holida) o'tkaziladigan savol- javoblar va qisqa suhbatlar paytida har xil mavzular, masalan, dunyoqarashni va axloqiy-estetik fazilatlarni, estetik did, mushohada va baholashni, mashg'ulotlarga qiziqishni, mehnat ko'nikmalari va xarakterning ayrim xislatlarini tarbiyaiash bo'yicha fikr almashish mumkin.

Boshlang'ich ta'limning quyi bosqichida 2-sinflarda o'quvchiga faqat tovush materiallari: oldin alohida-alohjda tovushlar, keyin esa asta-sekin murakkablashib boradigan so'zlar, gaplar beriladi.

Jumladan, quyidagicha:

- tovushlarni to'g'ri taiaffuz etishga o'rgatish;
- bittadan so'zni, uning xarakterini eshitib tasavvur etish;
- o'quvchida mavjud eshitish tasavvuriga muvofiq bitta so'zni har xil qilib gapirish qobiliyatini rivojlantirish;
- so'zlarning ma'nosini tasavvur etish. O'quvchi so'zni aniq eshitishi tufayli uning mazmunini tushunadi;

- ifodali gap tuza olish.

Boshlang'ich ta'limda birinchi sinfdan boshlab, so'zlarning ma'no- mazmuni va ularning rang-barangligi, ularni nima maqsadda va qanday holatlarda ishlatish lozimligini sodda qilib o'quvchilarga tushuntirish hamda ushbu so'zni ishlatishda mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish zarurligini o'qdirish lozim.

Kichik yoshli o'quvchilarda turli usullar bilan so'zlash va xilma-xil gaplar tuzish qobiliyatini tarbiyalashning eng yaxshi vositasi bu badiiy adabiyotlarni o'qishdir. Ohangdor, ifodali o'qish o'quvchi nutq madaniyatining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayon o'quvchilarning nutq malakalarini takomillashtirishda yordam beradi. «Ichki eshitish» nutqini kamol toptiradi.

Bunda so'zlarning xususiyatlarini tushunish qobiliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir so'z mohiyatini yaqqol va to'la tasavvur qilmay turib, ifodali o'qish mumkin emas. Chunki har bir so'zni tushunish va uning qaysi maqsadda qo'llanishini bilish natijasida tovush ohanglari har xil xarakterga bog'liq bo'lishi mumkin.

O'quvchida oddiy so'zlar orqali kichik gaplar tuzish qobiliyatini rivojlantirish voqea va hodisalarni tushunishga, o'z oldiga qo'yilgan maqsad, vazifa va vositalarni to'liq anglashiga bog'liq. Bunda materialni tanlashda puxta ovlash va o'quvchiga tavsiya etiladigan gaplarning emotsional xarakteriga asoslanish kerak.

Darsda o'qituvchi avval o'quvchiga so'z mazmunini tushunish, eslab qolish, o'zlashtirgan bilimlarini og'zaki va yozma ravishda ifodalashning ahamiyatini tushuntiradi. Ular tahlil qilinadi va yoziladi.

Ifodali o'qishda pauzalar tushuntiriladi. Keyin o'quvchi yoddan aytgan yana bir nechta she'rlar yoziladi. Tushuntirishni o'quvchi uchun mos va qiziqarli tarzda olib borish kerak. Bunday holda o'quvchi nutq madaniyatiga mavhum narsa deb emas, balki ilgari o'zi o'qigan badiiy asarlarning qayd qilinishi deb tushunadi. Shu bilan birga, unda o'ziga tanish bo'lgan she'rlardan parchalar o'qish, uni tahlil qilish va aytib ko'rish, tasavvur etish qobiliyati tarbiyalana boshlaydi.

She'ning matnini idrok etish asosiy omildir. Uni tahlil qilish tushunib o'qishdan boshlanadi. Bu ishning metodikasi quyidagicha: o'quvchiga topshiriq beriladi, u topshirilgan she'rni o'zicha juda sekin o'qishi, uni qayta-qayta takrorlab, tinish belgilarini tushunib olishi, o'qishni yana takrorlab, ifodali o'qish uchun kerakli harakatlarni ko'z oldiga keltirishi kerak. She'r matni bilan mana shu tariqa ishlashda vujudga keladigan tasavvurlar she'r matnida yashiringan badiiy obrazlarni gavdalantirish uchun zarur harakatlarni yuzaga keltiradi.

O'quvchining eshitish tasavvurlari, faol eshitish yo'nalishi va ijro vositalari harakatlar o'rtasidagi to'la mutanosiblikka texnikaviy rivojlanish va takomillashish uchun tayanch hamda turtki bo'la oladi. Ta'limning boshlang'ich bosqichida o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish uchun tavsiya etilayotgan ustoz metodikasining dastlabki bosqichida quyidagilarga erishish mumkin:

- nutq madaniyati kuchsiz yoki bunday iste'dodi mutlaqo ko'rinmaydigan bolalar nutq jihatdan kamol topishga layoqatli bo'lib boradilar;
- she'rlarni ifodali o'qish malakalarini shakllantirishga doir ishlar samaraliroq olib boriladi;
- o'quvchining obrazli tafakkuri, ijodiy tasavvuri kuchayadi;
- ularda nutq faoliyati uchun kerakli sifatlar shakllanadi;
- o'quvchilarda mustaqillik va tashabbuskorlik rivojlanadi;
- uning diqqat-irodasi faollashadi, o'zini nazorat qilish mas'uliyati ortadi;
- o'quvchining nutq madaniyatiga xos sifatlari jadal rivojlana boshlaydi.

Shuni aytish kerakki, yuksak sezgirlikka ega bo'lgan o'qituvchi bolalarning kayfiyati, noxushligini darrav fahmlaydi.

Bola ahvolini tushunish, unga hamdard bo'lish, kerak bo'lsa, madad berish kerak bo'ladi. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida, avvalo, to'g'ri so'z bo'lishi, ishlarini adolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi „ yaqinlikni oshiradi. Chunki nutq/ madaniyati insonlar munosabaffgan baholovchi muhim mezondir

«Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir», «Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi», degan edi Prezidentimiz.

Jurnalimizning pedagogik faoliyatimizdagi hozirgi yordami haqida gapiradigan bo'lsam, bu borada juda ko'p gap aytishim mumkin. Avvalo, unda chop etilayotgan dars ishlanmalari, sinfdan tashqari darslar, bayram tadbirlari ssenariylari biz uchun tap-tayyor konspekt vazifasini bajaradi. Chunki har bir so'z silliq, oson tushunadigan, unda ortiqcha jumlar, noo'rin tinish belgilari uchramaydi. Hatto undan ba'zi so'zlarning imlosini ham xuddi lug'at singari o'rganib bormoqdamiz.

2. Biz pedagoglarni doimo quvontirib kelayotgan yana bir narsa - tahririyat xodimlari, jurnalning bosh muharri Zuhra Shokirova o'z chiqishlarida mushtariylarning fikr-mulohazalari bilan qiziqib, takliflarini bildirishlarini iltimos qiladilar. Bu sa'y-harakatlar ham bizni hamisha ruhlantirib keladi. Men juda ko'p boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nglidagi bir gapni aytmoqchiman. Ya'ni, jurnalga obuna bo'lishni istagan har bir o'qituvchi to'g'ridan- to'g'ri tahririyat bilan bog'lanib, o'z istaklarini bildirishsa, o'z navbatida tahririyat ham tushgan raqamlar bo'yicha o'z nazoratlarini o'rnatishsa.

Ikkinchi -taklifim - mumtoz adabiyotimiz vakillari, buyuk allomalarimizning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar, ularning bizga qoldirgan adabiy meroslari, hikmatli so'zlaridan namunalar berilsa

Ilg'or pedagogik texnologiyalarga oid noan'anaviy usullarni boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z faoliyatlarida qo'llamoqdalar. Pedagogik texnologiya - o'qitish usuli, malum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui sifatida o'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab metod va vositalarni ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida «Qora quti», «Zakovatli zukko», «Qarama-qarshi munosabat», «Bilaman», «Bilishni xohlayman», «Bilib oldim» nomli o'yinlarni qo'llab, noan'anaviy darslarni tashkil qilish mumkin.

Quyida dars jarayonida «Qora quti» va «Zakovatli zukko» nomli interfaol (noan'anaviy) usullardan qanday qilib foydalanish haqida fikr yuritamiz.

Interfaol usuldan foydalanishning maqsadi: o'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs- munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirish.

Darsda o'quvchilar O'zbekistondagi kanallar, daryolar va ko'llar bilan tanishtiriladi, ularga suvning tabiatdagi, inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida tushuncha beriladi. Daryolarning o'ziga xos xususiyatlari bilan batafsil tanishish uchun shu daryolarning birini, o'quvchilar yashab turgan viloyat, tuman, qishloq hududidan oqib o'tadigan daryoning o'zini yo bo'lmasa, sug'orish qurilmalarini, suv bilan ta'minlaydigan daryoni misol qilib olish mumkin.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarga oid noan'anaviy usullarni boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z faoliyatlarida qo'llamoqdalar.

Pedagogik texnologiya - o'qitish usuli, malum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui sifatida o'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab metod va vositalarni ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida «Qora quti», «Zakovatli zukko», «Qarama-qarshi munosabat», «Bilaman», «Bilishni xohlayman», «Bilib oldim» nomli o'yinlarni qo'llab, noan'anaviy darslarni tashkil qilish mumkin.

Quyida dars jarayonida «Qora quti» va «Zakovatli zukko» nomli interfaol (noan'anaviy) usullardan qanday qilib foydalanish haqida fikr yuritamiz.

Interfaol usuldan foydalanishning maqsadi: o'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs- munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirish.

O'zbekistondagi kanallar, daryolar va ko'llar bilan tanishtiriladi, ularga suvning tabiatdagi, inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida tushuncha beriladi. Daryolarning o'ziga xos xususiyatlari bilan batafsil tanishish uchun shu daryolarning birini, o'quvchilar yashab turgan viloyat, tuman, qishloq hududidan

oqib o'tadigan daryoning o'zini yo bo'lmasa, sug'orish qurilmalarini, suv bilan ta'minlaydigan daryoni misol qilib olish mumkin.

So'ng o'qituvchi daryolardan birining oqimi, sohillarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida, sug'orish kanaliari va cho'l yerlarni o'zlashtirishda ularning ahamiyati to'g'risida so'zlab beradi. O'qituvchilarning diqqati gidroelektrostansiyalar barpo etish uchun Sirdaryodan foydalanish masalasiga, Amudaryoda kemalar qatnovi singari masalalarga jalb etiladi. O'qituvchi rasmlarni ko'rsatib, o'z fikrini tushuntiradi.

O'quvchilar rasmlarni diqqat bilan ko'rib chiqadilar va mazmunini so'zlab beradilar.

O'qituvchi o'quvchilarga darslikning 80-betini ochib, sug'orish qurilmasining sxemasini ko'rib 'chiqishlarini va sug'orish qurilmasining vazifasini so'zlab berishlarini so'raydi. «Tekislik daryosi» bilan «Tog' daryosi» ning rasmlarini ko'rsatib, o'qituvchi bu daryolarning suvi qay xilda oqishiga o'quvchilar diqqatini jalb etadi; dalalar, bog'larni va paxtazorlarni sug'orish zarur bo'ladigan yoz vaqtida O'zbekistonning ba'zi daryolari sayozlashib yoki suvi butunlay qurib qolishi, kerakli miqdordagi suv hamma vaqt tayyor turishi uchun bahorda ortiqcha suvlar sun'iy ko'llarga-suv omborlariga yig'ilishiga o'quvchilar diqqatini tortadi.

O'quvchilarga suv havzalarini muhofaza qilish, ichimlik suvini tejash masalalari haqida tushuncha beriladi.

«Qora quti» va «Zakovatli zukko» nomli interfaol usullar asosida o'quvchilar bilimni nazorat qilish, Ushbu metod vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o'quvchilar navbat bilan o'qituvchi rolini bajaradilar. Sinf taxtasiga «qayerdan boshlanadi», «uzun», «keng», «tiniq», «tez», «qayerga quyiladi» «nima hosil bo'ladi» kabi so'z va jumlar yoziladi, dastlab o'qituvchi rolini bajarayotganda o'quvchi qayd etilgan ro'yxatga daryo mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar kiritilganligini tekshiradi. So'ngra o'quvchilardan sinf taxtasida o'z ifodasini topgan atamaiarga izoh berishlarini so'raydi. O'quvchilar bu bosqichdagi faoliyatlari uchun

ham nazorat varag'ining ikkinchi pog'onasiga o'zlari uchun ball qo'yishlarini so'raydilar.

To'plangan ballar nisbatiga ko'ra mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilar o'z xohishlariga ko'ra o'qituvchi tomonidan beriladigan quyidagi savollarga qisqa muddatda javob qaytaradilar:

O'zbekistondagi qaysi yirik daryolarni bilasiz?

Qaysi suv omborlarini bilasiz?

Ko'ilar necha xil bo'ladi?

Suv omborlari nima uchun barpo etilgan?

O'zbekistondagi eng katta ko'l qaysi?

Ko'ilar nima vazifani bajaradi?

Mashg'ulot yakunida sinf taxtasiga o'rganilgan mavzu mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalardan iborat quyidagi topishmoq yoziladi:

Dengizu daryoda yashar,

Tez-tez ko'klarda kezar,

Zeriksa bormi, osmondan

Zamin uzra qaytib tushar.

(Bug', yomg'ir)

Men bor joyda gul bo'lar,

Mensiz gulzor cho'l bo'lar.

(Suv)

Uyga vazifa: O'zingiz yashaydigan joydagi daryo, hovuz, ko'l haqida insho yozing.

II.II. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tadbiq etishga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Boisi, bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi.

Innovatsiya so'zining ma'nosiga e'tibor bersak, u (inglizcha innovation) yangilik yaratish demakdir. Ya'ni, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar

asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur.

Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga yeda. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so'zi inglizcha - interaction, ya'ni, inter - aro, o'zaro, act - harakat ma'nosini anglatadi.) Interaktiv usullar - bu o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir. Ularning 4 asosiy turi mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o'yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o'yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat.

Bunday usullarning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Masalan, biror-bir mavzuni o'rgatishda uni modellashtirish qismida o'qituvchi o'quvchilarga modelni namoyish qilish oldida "Aqliy qujum" metodidan foydalanishi mumkin. Ya'ni o'quvchilar qo'yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko'nikmani qanday egallashlari mumkinligi ulardan so'ralib, fikrlari umumlashtiriladi. Bunda o'quvchilar fikri mutlaqo tanqid qilinmaydi.

Amaliy boshqaruv qismida o'qituvchi "hamrohingga o'rgat" metodidan foydalanishi mumkin. Bu metod darsni optimal tashkil etishga imkoniyat yaratib, o'quvchilarning o'z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o'rgatadi. Uni qo'llash quyidagicha:

- Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo'linadi.
- Darsni o'tish modelidan foydalanib, birinchi hamkor ikkinchisiga, ikkinchi hamkor esa birinchisiga modeldagi qismlarni o'rgatadi.

O'qituvchi xohlovchilarga ta'lim metodlari vositasida model qismlarini avval tushuntiradi, keyin ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan va ko'rsatganlarini takrorlaydilar va bajaradilar.

- O'qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o'ziga ixtiyoriy 2 nafar hamkorni tanlaydi. O'qituvchi o'z hamkorlariga modelni bosqichma- bosqich bajartirib ko'radi.

Tushunmaganlarini tushunib o'rganishlariga yordam beradi.

- O'qituvchi sinfdagi hamkorlarga birinchi qismni bir- birlariga o'rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularni ishlarini nazorat qilib, kamchiliklarni bartaraf etishga yordamlashadi. Shundan keyingina navbatdagi bosqichga o'tiladi. O'qituvchining hamkorlari esa sinfni nazorat qilishda o'qituvchiga yordamlashadilar.

- Bu ish usuli modelning boshqa qismlarini ham bajarishda davom etadi. Bu o'quvchilarni bir- biriga va o'ziga talabchan bo'lishga, xatolarni o'z vaqtida bartaraf etishga, ishni tanqidiy baholay bilishga o'rgatadi.

Tushunchalarni tekshirishda o'qituvchi turli interfaol metodlar - ("Bumerang", "Charxpalak", "Aql charxi" va boshqalar)dan foydalanishi mumkin. Masalan, "Charxpalak metodi".

O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi. Masalan:

Quyidagilarni qaysi so'z turkumiga tegishliligini aniqlang.

So'zlar So'z turkumlari

Ot sifat son olmosh fe'l

oyna sindi qizil : qalam o'nta sinf men ikki ; ' parta ; yashil
yuradi sen

O'quvchilar topshiriqni bajarganlaridan keyin ularning ishlari guruhdagi boshqa Tushunmaganlarini tushunib o'rganishlariga yordam beradi.

■ O'qituvchi sinfdagi hamkorlarga birinchi qismni bir- birlariga o'rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularni ishlarini nazorat qilib, kamchiliklarni bartaraf etishga yordamlashadi. Shundan keyingina navbatdagi bosqichga o'tiladi. O'qituvchining hamkorlari esa sinfni nazorat qilishda o'qituvchiga yordamlashadilar.

■ Bu ish usuli modelning boshqa qismlarini ham bajarishda davom etadi. Bu o'quvchilarni bir- biriga va o'ziga talabchan bo'lishga, xatolarni o'z vaqtida bartaraf etishga, ishni tanqidiy baholay bilishga o'rgatadi. Tushunchalarni tekshirishda o'qituvchi turli interfaol metodlar - ("Bumerang", "Charxpalak", "Aql charxi" va boshqalar)dan foydalanishi mumkin. Masalan, "Charxpalak metodi".

O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi. Masalan, "Baxtli tasodif" usuli.

1. Bu usul orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog'li o'rganilganligini aniqlash oson bo'ladi. Gapda ikkinchi darajali bo'laklar nimaga bog'lanadi?

2. So'roqlar yordamida quyidagi gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini toping?

Gullar kechasi ko'zlarini yummaydi.

Baxtli tasodif - 4

1. Gapda so'zlar nimalar yordamida bog'lanadi?

2. Quyidagi gapdagi gap bo'laklarini aniqlang?

Men elimning yuragida yashayman.

Baxtli tasodif - 5

Yutuq «5» baho

Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyqg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullar darsning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Nag bir o'qitish tizimining shakllari, uslublari davr talablariga mos ravishda o'zgarishi shart. fjqitishning bu qonuniyati, shubhasiz, respublikamizdagi barcha ta'lim sohasiga tegishli. Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»

Umummilliy dastur, DTS talablari va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari asosida o'qitilayotgan, davr talablariga mos holda maktablarimiz innovatsion uslublar bilan mujassamlashgan o'qitish texnologiyalaridan foydalanmoqda.

Ular quyidagilardir:

- muammoli o'qitish;
- differensial o'qitish;
- dasturga asoslangan kompyuterli o'qitish;
- modul texnologiyasi asosida o'qitish;
- o'qish va yozish orqali erkin mulohaza yuritish asoslarini shakllantirib o'qitish va h.k. Mavzuni o'rganish hamda umumlashtirish bo'yicha Janubiy Qozog'istondagi o'zbek maktablarining o'qituvchilari tajribasida shunday xulosalar qilindi. Shunga binoan
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur jarayoniga katta ahamiyat beriladi, biroq ularning erkin mulohaza yuritishlariga e'tibor kamroq.
- dunyoni tanitish darslariga qiziqish;
- qiziqish qoniqarli darajada emas;
- ta'lim-tarbiya jarayonidagi har tomonlama, chuqur fikr yuritishning turli xillari foydalaniladi, ammo erkin mulohaza yuritishning aniq uslublari tog'ri qo'llanilmaydi; o'qituvchilar o'quvchilarning erkin mulohaza yuritishini shakllantirishda darsni tashkillashtirishning maxsus strukturasiga yetarlicha ahamiyat qaratmaydi;
- o'quvchilarning ijodiy ishlari turlaridan to'g'ri foydalanmaydilar.

Bizningcha, o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatishning asosiy belgisi — o'quv muammolarini hal qilish davomida bilimlarni mustaqil ravishda egallashlaridir.

Erkin mulohaza yuritish asoslarini shakllantirib, o'qitishning muhim shartlaridan yana biri o'qituvchining muammoli vaziyatni qo'yish mahorati hisoblanadi.

Qo'yiladigan o'quv muammosi o'quvchilarni o'ylantiradigan darajada bo'lishi kerak, ammo bunda o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini yoddan chiqarmaslik zarur.

Erkin mulohaza yuritish deganimiz nima? Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda erkin mulohaza yuritish asoslarini shakllantirish mohiyati nimada?

Biz xohlagan bir ma'lumotni erkin jihatdan idrok qilamiz, ya'ni, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda tahlil qilamiz, taqqoslaymiz, mos kelganini qo'llaymiz.

Biz o'zimizning tavsiya etayotgan ma'lumotlarimizga ham erkin jihatdan yondoshamiz, chunki bizning xatti-harakatlarimiz doimo nazoratda bo'lishi kerak. Lekin bunda fikrimizga qarshi fikrlarni, g'oyalarni tanqid qilmaymiz, chunki har kim o'zicha fikr bildirishga haqlidir.

O'quvchilarimizni ham shunga o'rgatamiz. Demak, «erkin mulohaza yuritish» tushunchasi aniq bir g'oyalarni qabul qilib, uning nimaga tegishli ekanligini tadqiq qilish, ularni boshqa fikrlarga qarshi qo'ya olish, taqqoslay olish, ularga ishonch bilan qarash kabi tushunchalar yig'indisidir.

Mazkur erkin mulohaza yuritish asoslarini shakllantirish dasturining ichki tuzilishida o'ziga xos xususiyat mavjud bo'lib, u uch bosqichdan, ya'ni, qiziqishni uyg'otish, mazmunini anglatish, fikrlar xotimasi bosqichlaridan iborat. Bo'lgan o'qitish va o'rgatishning modeli hisoblanadi. Bunda o'zlashtiriladigan bilimning kelajakdagi amalda foydalanilishi, asqotishi nazarda tutiladi.

Qo'llangan ma'lumotni tahlil qilib, orasidan zarur bo'lganini tanlab olishga o'rgatadi.

I. Kirish qism: qiziqishni uyg'otish — asosiy jarayongacha Bo'lgan tayyorgarlik davri (nima bilamiz?) hisoblanadi va u muammoni o'qituvchi tomonidan tushuntirish davrini o'z ichiga oladi.

II. Asosiy qism: mazmunini anglatish — asosiy jarayonning cho'qqisi (nima o'rganamiz, nimani bilmaymiz?)

III. Xulosa: fikrlar xotimasi — asosiy jarayonni xulosalash (nimani o'rgandik, nimani bildik?) qismida turli xil usullar yordamida muammoli savolning

javobini topishga yo'naltirilgan ishlar olib boriladi, ya'ni, «men nima qilish kerakligini bilaman» qabilidagi shior ostida ishlanadi.

So'nggi bosqichda muammoning hal qilinishi, olingan ma'lumotlarning tekshirilishi, taqqoslanishi hamda o'zlashtirilgan bilim, malakalarning umumlashtirilishi nazarda tutiladi. Bunda o'quvchilar muammoni tahlil qiladi, berilgan savol bo'yicha o'zidagi bilimlarni esga tushiradi, faol ravishda yangi ma'lumotni izlashga kirishadi.

Bu o'qitish texnologiyasining asosiy mohiyati hamda yutuqlari (o'quvchiga nisbatan):

- o'quvchilarni har tomonlama fikr yuritishga majbur qiladi;
- o'z fikrlarini mustaqil aytishga o'rgatadi;
- mustaqil ishlashga odatlantiradi;
- o'zlashtiriladigan materialni o'zi izlab, tadqiq qiladi;
- ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi;
- o'z tengdoshini, o'zini tinglay olishga, fikr qo'shishga;
- berilgan fikrlarni tinglab, ularni boshqa fikrlar bilan taqqoslay olishga o'rganadi.

«Qushlar» mavzusini o'tishda o'quvchilarga «Birlashtirish» usulini qo'llab, qushlar haqida umumiy tushunchalarni so'rash mumkin. Eslatma: savolni aniq qilib berish lozim: Qushlar haqida nima bilamiz? «Shahar va qishloq transport turlari» mavzusida «Venn diagrammasi» usuli orqali dars mazmunini tushuntirish osonroq bo'ladi. Bunda shahar va qishloqda foydalaniladigan transportning turlari alohida-alohida, so'ngra ikkalasida ham bor bo'lgan transport turlarini o'quvchilar maxsus diagrammada tasvirlaydilar.

Ya'ni, shaharda — tramvay, trolleybus, metro va h.k.; qishloqda — arava, ot, chana va h.k.; ikkalasida ham — avtobus, yengil mashina, yuk mashinasi, velosiped.

Eslatma tariqasida: har bir darsdan so'ng o'qituvchi shartli ravishda xulosa bosqichidan (refleksiya) o'tishi lozim. Chunki o'tilgan darsni tahlil qilish, yutuqlari hamda kamchiliklarini aniqlash, ular sabablarini belgilash darsning ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining erkin mulohaza yuritish asoslarini shakllantirishda o'qituvchining roli yo'naltiruvchi sifatida o'quvchilar bilan birga ishlash, ularga ishonch bildirib, o'z fikrini, o'z so'zini aytishga imkoniyat yaratadi. Bu o'qitish texnologiyasi asosida o'qituvchilarning fikricha, darslarda o'quvchining bilim olish faolligi oshib, mustaqil organishiga ta'sir ko'rsatmoqda, o'quvchilar darslarning qiziqarli hamda yengil o'tayotganligini, jamoada birlashib ishlashga o'rganayotganliklarini, bilimning chuqurligi hamda mustahkamliligi oshayotganligini bayon qilishadi. Bugungi kunda o'qitish jarayonida innovatsion uslublarga boy bo'lgan pedagogik texnologiyalardan foydalanishda qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- barcha innovatsion uslublardan, loyihalardan to'g'ri va samarali foydalanish;
- ularning mazmunini, maqsadlarini to'liq tushunish;
- darsda texnologik usullarning barchasini barobar qo'llash shart bo'lmasa-da, asosiy maqsad mavzuning mazmunini yoritishga yo'naltirish;
- mazkur usullar asosida o'qituvchi doimiy ravishda ijodiy izlanishi lozim.

II.III Tajriba-sinov ishida 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanishda o'quvchilar bilimini nazorat qilish metodikasi bo'yicha ko'zda tutilgan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarimizni eksperiment sharoitda amalga oshirildi. Bundan asosiy maqsad, bitiruv malakaviy ishining sifatli ekanligini belgilash va shu asosida kamchiliklarni ham aniqlashdan iborat.

Yakunlovchi tajriba-sinov ishlari Navoiy shahridagi 17- umumta'lim maktabida o'tkazildi. Dars mashg'ulotlari nazorat sinfida ham, tajriba sinfida ham o'qituvchi tomonidan olib borildi. Bu o'z o'rnida natijalarni o'quvchilar bilimidagi

yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish imkoniyatini berdi. Nazorat va tajriba – sinov sinflarini tanlashda eksperimentning birinchi bosqichida amalga oshirilgan natijalarga asoslanildi va 2 ta sinflar olindi. Dars mashg'ulotlari boshlang'ich sinflarning 2-sinflari uchun mo'ljallangan o'qish dasturi va darsliklari asosida olib borildi..

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan oldin belgilangan o'qituvchilar maxsus tayyorgarlik o'tkazildi. Ularga tajriba-sinov ishlarining borish jarayonini qayd qilish, hamda natijalarini qanday qilib umumlashtirish lozimligi tushuntirildi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtirishda quyidagi me'yorlar asos qilib olindi.

Modomiki, o'qishdan Davlat ta'lim standartida o'quvchilarning o'qishdan olgan bilim, malaka va ko'nikmalari asosiy me'yoriy ko'rsatgich sifatida qabul qilingan ekan, bu tajriba – sinov ishlarining birinchi o'lchami sifatida qabul qabul qilindi.

2- sinf o'quvchilarining o'qish darslaridagi innovatsion texnologiyalari bo'yicha olayotgan bilimlari nazorat qilindi. Mazkur malakalarni aniqlashda o'quvchilarning o'qish fanidan o'zlashtirilgan bilimlarini nazorat qilishda qanday usullardan foydalanish lozim ekanligi hisobga olindi.

Og'zaki nutqni boyitish, amaliy mashqlar ustida ishlash orqali ifodalanadi.

Yuqori darajada, og'zaki nutqni boyitish, tohshiriqlarni qanday bajarilishi kerak, uning asosini tushunish to'g'ri javob bera oladigan o'quvchilar kiritiladi.

Biz shartli ravishda bu o'quvchilarni "A" darajadagi o'quvchilar deb nomladik.

O'rta darajada og'zaki nutqni boyitish, tohshiriqlarni qanday bajarilishi kerak, uning asosini tushunish, mavzular bo'yicha berilgan savollarga javob berishda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'ygan o'quvchilar shartli ravishda "B" darajada deb nomladik.

O'quvchilarning amallarini ketma-ketligini belgilash darajasi.

Maktab ta'limi darslarida o'quvchilarning kelajakda o'qishni mukammal ravishda o'rganishda ular nutqini boyitib borishda o'quvchilar olgan bilimlarini

uch darajaga ajratildi. “A” darajaga oʻttiz daqiqa orasida oʻqituvchi tomonidan aytib berilgan, mavzu yuzasidan berilgan topshiriqlarni xatosiz bajargan; “B” darajaga mavzu yuzasidan berilgan topshiriqlarni xatoga yoʻl qoʻygan oʻquvchilar kiradi.

Bahs – munozara darsini samarali oʻtkazish uchun oʻquvchilar muhokama qilnadigan matn yoki mavzu buyicha keng tushunchaga ega boʻlishlari, uni yaxshi oʻqib - oʻrganib chiqqan boʻlishlari kerak.

Oʻqish darslarida ilgʻor pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari, til taʼlimi samaradorligini oshiribgina qolmay, balki uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

2 -sinf oʻquvchilarining bilim, malaka va koʻnikmalari yuqorida belgilangan meʼyorlar asosida baholandi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda oʻz ifodasini topgan.

Tajriba – sinov ishlarining natijalari.

Me `yorlar	O` quvchi soni	Nazorat sinflari			Tajriba-sinov sinflari			
		A” darajada	B” daraj ada	D” darajada	quvchilar soni	A” darajada	B” darajada	D” darajad a
1- me`yor	31	29 %	5.6 %	7. 4 %	35	5 9.3 %	3 7 %	3 .7 %
2- me`yor	31	42 %	0.8 %	1 4.8 %	35	7 5 %	2 2 %	3 %

Bizga maʼlumki, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oyin faoliyati asosiy oʻrinni egallaydi. Shini eʼtiborga olgan holda dars jarayonida oʻquvchilar nutqini atamalar bilan boyitish, ularning dunyoqarashini shakllantirishda oʻquvchilarning bilimini eʼtiborga olgan holda bir qator innovatsion usullardan foydalanishni oʻz oldimga asosiy maqsad qilib oldim.

Kichik tadqiqot ishiga oid tajriba sinov ishlarini ikkita parallel sinflarda amalga oshirdim. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan uslubiy tavsiyanomalar hamda tajribali 2- sinf o'qituvchilari ko'rsatmalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar tajriba sinflarida oddiy sinflarga nisbatan ancha samarali natijalarga erishilganligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir darsni zamon talablari darajasida ko'rgazmali qurollarasosida o'tishi o'quvchilarda tafakkur mazmundorligi kabi ijobiy xususiyatlarning tarkib topishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

“Rolli uyin” uslubini o'tkazish qoidalari.

1.“Rolli uyin”ni o'tkazish uchun belgilangan vaqt reglamentiga aniq-raso rioya etish lozim.

2.Rolli uyinda ishtirok etilayotgan o'quvchilar kuzatuvchilar sifatida ishga olinishi yoki yordamchi rollarni (masalan, bayonnoma yozib boruvchi) ijro etishi lozim.

3.Uyin muhokamasi paytida o'quvchilar aytgan fikrlar boshqa nuqtai nazarda bo'lgan o'quvchilar tomonidan nazarda tutilgan reglament doirasida asosli tanqidga yoki muhokamaga tortilishi mumkin.

4.Zarur bo'lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish kerakki, bu narsa g'oya yoki fikrni aniq-raso va qisqacha ifodalash imkonini beradi.

.

Muz yorar o'tkazish qoidalari.

1.Aniq vaqt belgilanadi.

2.Dars mavzusiga qarab “muz yorar” mavzusi tanlanadi.

Masalan: Oyna darsi, oyna muz yorari.

3.O'qituvchi tomonidan "muz yorar" qoidalari o'quvchilarga tushuntirildi.

Mimikali harakatlar o'qituvchi tomonidan bajarib ko'rsatiladi.

4. "Muz yorar" yakunida o'quvchilar qarsaklar bilan olqishlanadi.

Masalan:

O'qituvchi yangi darsga kirib o'quvchilar bilan salomlashadi.

YAna siz bilan uchrashib turganimdan xursandman, kayfiyatingiz qanday, yaxshimi.

-O'quvchilar: YAxshi.

-O'qituvchi: YAxshi kayfiyat bilan dars boshlash yaxshi. A'lo kayfiyat bilan dars boshlasak, undan ham yaxshi.

- Keling birgalikda kayfiyatimizni a'lo darajada ko'tarib olamiz. Buning uchun esa sizni menga yordamingiz kerak. YOrdamga tayyormisiz?

-O'quvchilar: tayyormiz.

-Unday bo'lsa men sizlarni muz yorarimiz qoidalar bilan tanishtiraman

Bugungi darsimizda o'tkaziladigan muz yorarda ishtirok etish uchun faqat qish faslida tug'ilgan o'quvchilarimizni chiqib doskaga yonida doira shaklini egallashlarini so'rayman. Mana "YAngi yil" bayrami ham yaqinlashib kelmoqda shuning uchun bugun biz siz bilan "Sovg'a" muz yorarni o'tkazamiz. Muz yorarimiz qoidasiga ko'ra men yonimdagi ishtirokchiga mimika bilan sovg'a taqdim qilaman, ishtirokchi o'quvchi sovg'ani qabul qilib olib minnatdorchilik bildiradi va ovoz chiqarib sovg'aning nomini aytadi.

U ham yonidagi ishtirokchi o'quvchiga aktiyorlik mahoratini ishga solib mimika bilan ajoyib bir sovg'a taqdim etadi.

Masalan: Gul, telefon, zirak, uzuk, mashina va boshqalar. Ishtirokchi o'quvchi esa sovg'ani qabul qilib oladi va shu tariqa u ham yonidagi mimika bilan yangi bir sovg'a taqdim etadi muz yorar yakunigacha shu tarzda davom etadi. YAkunida "Muz yorarda" aktiv ishtirok etgani uchun barcha o'quvchilar qarsaklar bilan olqishlab qo'yiladi.

2. “Axborot uzatish”. Biror mavzu bo’yicha har bir o’qituvchi o’z bilganini aytadi (bunda 1-o’quvchi boshlaydi, 2-3-4 davom etadi). M: “Sayr” mavzusida o’qituvchi “Men sayrga borish uchun suv olaman” desa, 1-o’quvchi “Men esa suv, non olib boraman” deydi, 2-o’quvchi esa “Men suv, non va tuz olib boraman” deydi va uyin shu tariqa davom etadi. Keyin xulosa yasaladi.

10. “Seminar”. Usuli keng tarqalgan usullardan bo’lib, mavzu oldindan beriladi va har bir o’quvchi mustaqil tayyorlanib keladi va o’z fikrini, o’z bilimini, namoyish etadi axborot almashiniladi. Mavzu berilganda uning manbalari berilsa usulning samarasi yaxshiroq bo’ladi.

11. “Masofali ta’lim” usuli interaktiv usullarning zamonaviy ko’rinishi bo’lib jonli muloqot, yozuv-yozilishi orqali matbuot orqali, telekommunikatsiya amalga oshiriladi. Bunga sirtqi olimpiada sirtidan o’qish, eskternat va h.k.lar kiradi.

12. “Ko’chma bozor”. Nomidan ma’lumki bilimlar sotiladigan joy bo’lib xaridor va sotuvchidan iborat muloqat ko’chma esa bir nechta davlatlar qatnashib o’z bilimlarini namoyish etadigan yarmarkadir. Oluvchilar ham sotuvchilar ham aktiv (faol) bo’lmasalar bozorlari kasod bo’ladi.

13. “Internet” usuli kompyuterning lokal tarmog’i bo’lib butun Dunyo bilan bog’lanib ham bo’ladi. Bunda o’quvchi interaktiv usullar o’qish, o’rganish, o’z intellekt va intellektual darajasini oshirish uchun axborot manbai bo’lib hisoblanadi. Bu usulda bilimdon o’quvchi internet rolini o’ynashi mumkin.

14. “Kompyuterlashtirilgan dars” usuli kompyuterda dasturlashtirilgan mavzuni o’rganadilar va o’z bilimlari oshibgina qolmay kompyuterda ishlash malakasi ham o’zlashtiriladi.

15. “Davra suhbat” bu usulda ma’lum biror mavzu bo’yicha suhbat uyushtiriladi. Bu usul “Bahs munozara” usuliga o’xshash bo’lib fikrlar, g’oyalar tanqid qilinmaydi, demokrotiya usulda har bir o’quvchi o’zi uchun xulosa chiqarib, o’zi bilmagan narsalarni o’rganib oladi.

16. “Bosh qotirmalar” usuli. Bu usulda krossvord, chaynvord, rebus va hokazo boshqotirmalardan foydalaniladi. YAngi mavzuni o’tishda o’quvchilar bilimini sinashda bu usul qiziqarliligi, tafakkur va xotirani o’stirishi bilan ajralib

turadi. Bu usulni qo'llashda o'qituvchidan ko'p mehnat, ijodkorlik talab etsada, Samara yuqori bo'lishi bilan va qiziqarliligi bilan boshqa usullardan farq qiladi.

17. “Muammoli dars” usuli. IMEN (ixtiroli muammolarni echish nazariyasi) savollar: “Fikrni yoki xulosani davom et?” “Sen nima deb o'ylaysan?”. O'quvchilar orasida muammoli vaziyatni yaratish hamda shu holatdan chiqib ketish usullarini izlash. O'quvchilarni mantiqiy, ijodiy fikrlashga chorlash. Ixtiroli muammolarni echish nazariyasi-IMEN hozirgi paytda juda qo'llanadigan bozor iqtisodi davrining etakchi usullaridan biridir.

18. “Rolli o'yinlar” usuli darsning barcha tiplarida qo'llanishi mumkin. Bizning tajribamizda kasb-hunarga yo'llash maqsadida o'quvchilarni uch guruhga bo'lib, “Laborant”, “Agronom”, “Biologolim” kasblari haqida bahs yuritdek, kasbni himoya qildik yoki boshqa fanlarda spektakl, sahna ko'rinishi shaklida olib borish mumkin.

UMUMIY XULOSA

Bugungu kunda oldimizda turgan maqsadimizga ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samarasi -avvalombor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liqdir.

I BOB. 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari

II BOB. 2-sinf o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion texnologiyadan foydalanishda dars samaradorligini oshirishning amaliy ahamiyati deb nomladik.

Metodikaning asosiy qoidalariga amal qilish vaziyati eng ma'qul yechimni topishga, muloqot olib borish, himoya qilinayotgyn metod talablarini o'z nuqtai nazaridan isbotlash, himoya qilish, har qanday nuqtai nazarning to'g'riligiga hammani ishontirishga o'rgatadi.

Shuning uchun o'qituvchidan o'quvchini turli vaziyatlarda to'g'ri fikr yuritish, fikrlarini taqqoslay bilish, tahlil etish, muhokama yuritish, o'z fikrini ma'lum bir tizimda ifodalash ko'nikmalarini hosil qilishda faqat bir xil o'qitish metodidan foydalanmay, balki o'qitish metodlarini o'zaro aloqada qo'llashni talab etadi.

O'quvchilarda mavzu yuzasidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jartayoniga nisbatan yondashuvini talab etadi.

O'quvchining shaxs sifatida shakllanishi uchun o'z fikri, o'z so'zi, o'zining mustaqil nuqtai nazari bo'lishi talab etiladi. Bunga maktabda o'qituvchi tomonidan nazorat qo'yilib, bolalarni erkin, mustaqil fikrlashga, bir – birini hurmat qilishga yo'llaydigan, umuman, insonni inson sifatida qadrlashni ta'minlash juda muhimdir. O'qitishda ta'lim shakllari, metod usullarining samaradorligini oshirishda o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Shuning uchun o`qituvchidan o`quvchini turli vaziyatlarda to`g`ri fikr yuritish, fikrlarini taqqoslay bilish, o`z fikrini ma`lum bir tizimda ifodalash ko`nikmalarini hosil qilishda faqat bir xil o`qitish metodidan foydalanmay, balki o`qitish metodlarini o`zaro aloqada qo`llashni talab etadi.

O`qish bilan shug`ullanish faqat xotira va tafakkurni shakllantirib qolmay, balki, bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish va mehnat tarbiyasi maktabi ham bo`ladi.

Bu sohada o`qituvchidan juda ko`p izlanish talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda 2-inf o`quvchilarining ta`lim tarbiya jarayonini to`g`ri tashkil etish orqali ularning dunyoqarashini shakllantirish, buning natijasida o`qish fanidan olgan bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish jarayonida yuqori natijaga erishish, ularning kelgusi faoliyatlari jarayonida ham samarali natijalarga erishishning muhim omillaridan biri bo`lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.,«Ma'naviyat»,2008-176 b
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat.- T.: «O'zbekiston»,1992-65 b
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: «O'zbekiston»,1999-48 b
4. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
5. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.- 2009 yil 5 dekabr
6. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi.-T.: O'zbekiston, 2010- 80 b.
7. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.-65 b
8. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.-65 b
9. Otaqulova G. “Vatanni sevmoq iymondandir” Boshlang'ich ta'lim jurnali 2001-yil №2 mart-aprel 12-13-bet
10. Azimova “O'zbekistonim mening” Boshlang'ich ta'lim jurnali 2003-yil №15 mart-aprel 4-5-bet
- 11.Q.Rahimboyeva vatanim –yorug` maskanim Boshlang'ich ta'lim jurnali 2001-yil №1 mart-aprel 6-7-bet
12. Azimova Istiqlolim – istiqbolim Boshlang'ich ta'lim jurnali 2003-yil №5 mart-aprel 6-9-bet
13. N. Raximova “Vatan ichra vatan” Boshlang'ich ta'lim jurnali 2003-yil №4 mart-aprel 12-13-bet
14. I.Umarova Vatan borasidagi so`z boyliklarini oshirish Boshlang'ich ta'lim jurnali 2003-yil 14-15-bet

- 15.M.Hammitova Jahon tan olgan O`zbekiston ta`lim tizimi Xalq ta`limi 6-son 2000-yil 11-bet
- 16.A.Bekmurodov “Ta`lim standartlari va tarbiyaviy jarayon samaradorligi” xalq ta`limi 5-son 2000-yil 91-93- bet
- 17.O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`lim to`g`risida Nizom xalq ta`limi 4-son 1998-yil 11-14-bet
18. Q.Abdullayeva va boshqalar o`qish kitobi 2-sinf uchun darslik Toshkent “O`qituvchi” 1997-yil (26-bet)
19. Q.Abdullayeva “Yangi pedagogik texnologiyalar” Boshlang`ich ta`lim jurnali 1999-yil 4-son (25-bet)
- 20.Qilichov A. “O`qitishning samarali usuli” Boshlang`ich ta`lim jurnali 1995-yil.
- 21.Ashrapova. Hoshimov A. O`qish kitobi 3-sinf uchun o`qituvchi nashriyoti 2000-yil (16-bet)
22. E.Shojaldova S.Matjonov va boshqalar “O`qish kitobi 3-sinf uchun darslik” Toshkent “o`qituvchi” 2001-yil (336-bet).
23. S.Fuzaulov va boshqalar.Ona tili 1- sinf darslik. Toshkent “O`qituvchi”2003
24. S.Fuzaulov va boshqalar.Ona tili 2- sinf darslik. Toshkent “O`qituvchi”2003
25. S.Fuzaulov va boshqalar.Ona tili 3- sinf darslik. Toshkent “O`qituvchi”2003
- 26.G`ulomova X. , Yo`ldosheva Sh., “ Boshlang`ich sinflrda ona tili o`qitish metodikasi ” ma`ruza matni , Toshkent 2002
27. Gapporova T., va boshqalar 1-sinfda “ Ona tili ” darsligi T., 2003
28. Qosimova K va boshqalar “ Ona tili ” 2- sinf uchun T., “O`qituvchi ” 1997 yil
29. Fuzailov S. , Xudoberganova M., “ Ona tili ” 3- sinf uchun T., “O`qituvchi ”1999yil
30. Ikromova R. va boshqalar “ Ona tili ” 4- sinf uchun T., “ O`qituvhci ”1999 yil
31. G`ulomova X., Yo`ldasheva Sh . “ Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi ” ma`ruza matnilari T., 2006 yil